Regressiya chizig'i – bu vertikal chiziqlarda joylashgan o'rtacha arifmetik nuqtalardan o'tuvchi chiziq. Shunday qilib, gorizontal o'qda meteorostançiyadagi o'rtacha oylik shamol tezligi qiymatini topib bir vaqtning o'zida regressiya chizig'ining ordinatasini aniqlaymiz. Shu bilan birga o'sha ordinataga mos ravishda suv omborida kuzatilgan shamol tezligining o'rtacha arifmetik qiymati aniqlangan bo'ladi. Bu qiymat suv omboridagi shamol tezligining o'rtacha oylik qiymatini aks ettiradi. Agar hisobiy shamol tezligini topish kerak bo'lsa, unda grafikning 2-chizig'idan, ya'ni shamolning hisobiy tezliklarini birlashtirgan oval chiziqdan foydalaniladi. Shamolning hisobiy tezliklari grafigi ovalga urinmalar, ya'ni meteorostançiyadagi hisobiy shamol tezligi - o'ngdan vertikal urinma, suv omboridagi – tepadan gorozontal urinma ko'rinishida ta'svirlanadi. Hisobiy shamol tezligini aniqlash uchun yuqorda ko'rsatilganidek ikkinchi chiziq tenglamasidan foydalanish lozim.

Bevosita suv omborida shamol tezligi kuzatilmagan bo'lsa, yaqin oradagi meteorostançiyalarda va suv omborida shamol tezliklarini bir vaqtda o'lchash natijasida hisoblangan korrelyatsion koeffitsientlar ichidan eng kattasini tanlab va ushbu korrelyatsion bog'lanish koeffitsientiga ega bo'lgan meteorostançiyani ma'lumotlarini, suv omboridagi shamol tezligi xarakteristikasini aniqlash, shamol tezliklarini nazorat qilish uchun tanlash lozim.

Meteorostançiya va suv omborlarining odatiy (orasidagi masofa 50 km dan ko'p bo'lmagan bo'ladi. Bu narsa ikki punktda kuzatilgan shamol tezliklarini o'rtachasini olish mumkinligini bildiradi. Shunday ekan, suv omboridagi to'lqin balandliklarini, suv yuzasidan bo'ladigan bug'lanishni hisoblashda albatta suv ombori va meteorostançiyadagi shamol tezliklarini hisobga olish lozim bo'ladi.

S

u

v

omborlarida shamol ta'sirida paydo bo'ladigan to'lqinlarning parametrlarini aniqlash uchun suv ombori yaqinida joylashgan meteorostançiyadagi ko'p yillik shamol tezligi bo'yicha olib borilgan kuzatuv ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda hisobiy shamol tezligini aniqlash zarur. Suv omborida kuzatuvlar olib borilmagan hollarda undagi shamolning hisobiy tezligini,

ta'minlanganligini va boshqa parametrlarini aniqlashda yuqorida keltirilgan tavsiyalarni hisobga olgan holda amalga oshirish lozim.

Agar meteostançiya suv omboridan uzoqda joylashgan bo'lsa, albatta suv ombori bilan meteostançiyadagi shamol tezliklarining o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishni bor yoki yo'qligini tekshirib ko'rish lozim. Korrelyatsion bog'lanish bor yoki yo'qligi korrelyatsion koeffitsientning kattaligiga qarab aniqlanadi. Bu korrelyatsion koeffitsient suv omborida hamda meteostançiyada bir vaqtda kuzatilgan shamol tezliklari bo'yicha hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan  $V_{Whis} = A(-\ln P_{his})^m$  formuladagi parametrlarni aniqlash uchun meteostançiyalarda olib borilgan barcha yo'nalishdagi kuzatuv ma'lumotlaridan emas, balki suv ombori to'g'oniga xavfli bo'lgan yo'nalishdagi shamol tezliklarining ko'p yillik ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Shamol tezligining hisobiy ta'minlanganligi qo'llanmada keltirilgan bog'lanishga

Andijon suv ombori hududidagi shamol rejimi o'rganilib chiqildi. Hududda yil davomida shamol turli yo'nalishlarda esadi, lekin Andijon suv omborining to'g'oni uchun eng xavfli yo'nalish - bu sharqiy yo'nalishdir, shuning uchun hisob-kitoblarda sharqdan esgan shamol tezliklari olindi.

Andijon suv omborining me'yoriy dimlangan sathgacha (MDS) to'lgandagi 50 yilda takrorlanadigan 1% ta'minlanganlikdagi kutiladigan to'lqin balandligini hisoblash uchun hisobiy shamol tezligi hisoblari 3.3 hamda 3.4-jadvallarda keltirilgan. Unda 12 yil davomida Savay meteostançiyasida olib borilgan kuzatuvlar natijasi bo'yicha sharq tomondan esgan bir qator shamol tezliklaridan foydalanilgan. Andijon suv ombori to'g'oniga xavfli bo'lgan sharqiy yo'nalish bo'yicha shamol tezligining ta'minlanganligi 4.3-jadvalda keltirilgan.

$$P_{an} = \frac{1}{N_{yp} \cdot t_{jadval} \cdot n}$$

Savay meteostançiyasida kuzatilgan sharqiy yo'nalishdagi shamol tezliklari ta'minlanganligi

amol tezligi, m/s								
a'minlanganlik								
amol tezligi, m/s								
a'minlanganlik								
amol tezligi, m/s								
a'minlanganlik								

3.4 -jadvaldan va quydagi formulalardan foydalangan holda  $A$  va  $m$  parametrlarni qiymatlarini topamiz.

I  
I  
s  
i  
n  
f  
d



$$A = EXP \left\{ \frac{\sum_{i=1}^k \ln V_w \cdot \sum_{i=1}^k [\ln(-\ln P)]^2 - \sum_{i=1}^k [\ln V_w \cdot \ln(-\ln P)] \cdot \sum_{i=1}^k \ln(-\ln P)}{\kappa \cdot \sum_{i=1}^k [\ln(-\ln P)]^2 - \left[ \sum_{i=1}^k \ln(-\ln P) \right]^2} \right\} = EXP \left\{ \frac{51,607 \cdot 34,755 - 36,966 \cdot 8,303}{23 \cdot 34,755 - 8,303^2} \right\}$$

$$= EXP(2,035) = 7,61$$

$A$  va  $m$  parametrlarning qiymatlarini tezkor aniqlash uchun MathCad dasturidan foydalanish mumkin. Ushbu dastur bilan istalgan vaqtda hisoblash ishlarini tezkor amalga oshirish, shu bilan birgalikda oldingi hisoblarni dasturda saqlanib qolish va taqqoslash imkoniyatlari ham mavjud.

jadval.

Andijon suv omboridagi hisobiy shamol tezligi uchun  $A$  va  $m$  parametrlarni hisoblash

Shamol tezligi $V_w$ , m/s	$\ln(V_w)$	Shamol tezligining ta'minlanganligi $R_i$	$\ln(-\ln(R_i))$	$[\ln(-\ln(R_i))]^2$	$\ln(V_w) \cdot \ln(-\ln(R_i))$
			D		
			E		
			q		
			u		
			a		
			t		
			i		
			o		
			n		
$m =$	$\kappa \cdot \sum_{i=1}^k [\ln V_w \cdot \ln(-\ln P)] - \sum_{i=1}^k \ln V_w \cdot \sum_{i=1}^k \ln(-\ln P)$			$23 \cdot 36,966 - 51,607 \cdot 8,303$	
	$\kappa \cdot \sum_{i=1}^k [\ln(-\ln P)]^2 - \left[ \sum_{i=1}^k \ln(-\ln P) \right]^2$			$23 \cdot 34,755 - 8,303^2$	

Shundan so'ng 3.3-formulaga murojat qiladigan bo'lsak, shamol tezligining hisobiy ta'minlanganligi:





oliy-sharq va maksimal shamol tezligi – janubiy yo‘nalishdan bo‘lganligi kuzatilgan. attaqqo‘rg‘on meteostanūiyasidagi 20 yillik kuzatuv ma’lumotlari asosida Kattaqqo‘rg‘on suv omboridagi hisobiy shamol tezligining parametrlari aniqlandi.

$$A=2,84, m=0,845 \text{ va } R_{his}=0,00000114 \text{ ga teng bo‘ladi.}$$

Topilgan **A**, **m** va **R<sub>his</sub>** qiymatlaridan foydalanib, janubiy yo‘nalishdagi hisobiy shamol tezligi quyidagi formula orqali topiladi.

$$V_{Whis} = A (-\ln P_{his})^m = 2,84(-\ln 0.00000114)^{0,845} = 25,9 \text{ m/s}$$

4.7–jadval.

Andijon, Tallimarjon va Kattaqqo‘rg‘on suv omborlari uchun hisoblangan **A**, **m** va **R<sub>his</sub>** parametrlar va hisobiy shamol tezliklari

omborlari	amol	S h		Hisobiy shamol tezligi, m/s	
		avjud usulda	avsiya etilgan	avjud	avsiya etilgan
Andijon	arqiy				
allimarjon	oliy				
attaqqo‘rg‘on	Janubiy				

oridagi 3.7-jadvaldan ko‘rinib turibdiki suv omborlaridagi shamolning hisobiy tezliklarining aniqlangan shamolning hisobiy kattaligi barcha yo‘nalishda olingan ko‘rsatkichidan kattaroq. Bu esa o‘z navbatida suv omborlaridagi hisobiy to‘lqin balandligi aniqlashtiradi va suv omboridan

## V –bob. SUV OMBORLARINI LOYQA BOSISHI

u

Suv omborlari sug'oriladigan er maydonlarini suv bilan ta'minlovchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Uning rejadagi suv ta'minotini kafolatlangan davri loyqa-cho'kindi bilan to'lib qolish muddatiga bog'liq. Loyqa-cho'kindilar muallaq va o'zan tubi cho'kindilar qatlamlarini o'z ichiga oladi. Tub cho'kindilari butun loyqa bosish davrida to'liqligicha tubga cho'kadi va odatda ularning hajmi loyqa-cho'kindilar umumiy miqdoriga kiradi. YUqori befdagi cho'kindi qatlami ortib borishining ma'lum bosqichida loyqa bosishi suv omborlarini boshqariladigan foydali hajmining qisqarishiga sababchi bo'ladi, suv manbaining rejalashtirilgan rejimi buziladi va natijada sug'orish tizimlarining ish rejimi ham yomonlashadi. Shuning uchun suv ombori va to'g'on parametrlarini belgilashda, ekspluatatsiya rejimining eng maqbul samarali usullarini, loyqa-cho'kindilar qatlamini kamaytirish va yo'qotilgan suv omborlari foydali hajmini oshirish chora-tadbirlarini hamda cho'kindilarning shiddatli tushuvchi hududlarini aniqlash va ularni maxsus qurilmalar yordamida tozalash uchun loyqa bosish muddatlarini bashoratlash zarur bo'ladi.

Suv omborlarida loyqa-cho'kindilar shakllanishi va ularni hisoblash usullarining nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha S.T.Altunin, I.A.Buzunov, J.Bryune, M.A.Velikanov, A.N.Gostunskiy, A.V.Karaushev, I.A.Kuzmin, K.I.Rossinskiy, V.S.Lapshenkov, I.I.Levi, A.M.Muxamedov, K.Sh.Latipov, T.Taylor, G.I.Shamov, I.A.Shneer, M.A.Mostkov, I.A.Moldovanov, E.J.Maxmudov, F.Sh.Muxamedjanov, F.Ort, V.G.Sanoyan, V.A.Skrýlnikov, X.A.Ismagilov, A.M.Arifjanov, M.R.Ikramova kabi ko'plab olimlar ilmiy tadqiqot olib borgan va ijobiy natijalarga erishgan

Suv omborlari tog'li rayonlarda va past-tekisliklarda qurilgan bo'ladi. Turli daryolar suvining loyqalik darajasi turlicha bo'ladi. O'zbekiston hududidagi suv omborlarining ko'pchiligi pastlik rayonlariga tegishlidir. Past-tekisliklardagi suv omborlarida tog'li rayonlarnikiga qaraganda suv tarkibidagi cho'kindilar miqdori katta bo'ladi. Buning natijasida suv omborining yarim hajmi 25-50 yildan so'ng loyqa bosadi va 50-100 yilda umuman ishdan chiqadi. Masalan, Qayroqqum suv ombori 4,2 mlrd. m<sup>3</sup> dan 0,5 mlrd m<sup>3</sup> hajmi loyqa bosgan, Chordara suv omborida 3 yil ichida 5,7 mlrd. m<sup>3</sup> dan 0,10 mlrd. m<sup>3</sup> loyqa bosgan va hokazo.

Suvining loyqaligi yuqori daryolarda barpo etilgan suv omborlarini tez cho'kindi qoplay boshlaydi, oqibatda ularning suv sig'imi yildan-yilga kamaya boradi. Ayrim hollarda esa ular bir necha o'n yillar davomidayoq daryo oqimini boshqarish uchun yaroqsiz holga keladi [5.1-rasm].



5.1-rasm. O'zan suv omborini loyqa bosishi

Suv omborlarini loyqa bosishining ta'sirlari:


- boshqariladigan suv hajmi kamayadi, samaradorlik pasayadi;
- suv sathi egri chizig'i (krivaya podpora) yuqori bef bo'ylab ko'tariladi;
- suv bosadigan maydon kengayadi;
- suv sathi nishabligi oshadi;
- oqim tezligi o'zgaradi;
- asosan, muallaq oqiziqalar, qisman cho'kindilar harakat tezligi ortadi.

5.1. Suv omborlari nafaqat suv, oqiziq va cho'kindilar akkumulyatori ham hisoblanadi. Mayda loyqalarning cho'kishi loyqa bosishi deb ataladi, yirik oqiziqalarning cho'kib yig'ilishi cho'kindilar bilan qoplanish deb ataladi. Odatda, ularni bir - biridan ajratilmaydi va suv omborini loyqa bosishi deb yuritiladi. Loyqa bosishi jarayonida suvning dimlanish egri chizig'i ko'tariladi va oqim yuqori byefi tomon surilib boradi. Dimlanish sohasida nishablik paydo bo'ladi va oqiziqalar aralashuvini sodir qiladigan darajada oqim tezligini kuchaytiradi. Bu jarayonda oqiziqalar katta qismini muallaq zarrachalar tashkil qiladi. Ammo tog' zonalarida yirik cho'kindilar hajmi ko'proq bo'ladi. Loyqa bosishi jarayonida suv omborida 3 ta zona yuzaga keladi (3.2-rasm):

- yuqori zona - bu yerda oqim rejimi kam o'zgaradi va oqiziqalar cho'kishi hajmi ham ko'p emas;
- o'rta zona - bu sohada suv damlanishi natijasida gidravlik sharoit juda o'zgargan va oqiziqalarning qumsimon asosiy qismi cho'kadi;

- pastki zona - to'g'on oldi zonasi bo'lib, asosan, juda mayda zarrachali loyqa bilan qoplanadi.

### 5.2-rasm. Suv ombori hududida cho'kindilarning joylashuvi



Loyqa bosish davrida yuqorida keltirilgan zonalarining chegaralari pastga qarab surilib boradi. Shu vaqtning o'zida qo'shimcha dimlanish egri chizig'i cho'kindilar hajmi ko'payishi hisobiga yuqori byef tomon suriladi va awal daryo o'zani bo'lgan joylarda suv to'planib, suv ombori maydonini kengaytira boshlaydi. Joyning nishabligi kichik bo'lsa, suvning dimlanishi natijasida ko'p joylar suv tagida qoladi. Oqiziqlar uzun masofada, ammo kuchli kontsentratsiyalanmagan holda cho'kadi. Agar

joyning nishabligi katta bo'lsa, dimlanish egri chizig'i tugayotgan joyda cho'kindilar dambasimon to'siq paydo qiladi, va u asta-sekinlik bilan pasga qarab siljiydi. Bu joylarda o'zan shakllantiruvchi material bo'lib, qum emas, mayda va yirik galechniklar xizmat qiladi. Bunda nishablikka qarab cho'kindilar quyidagicha joylashadi:

- agar nishablik kichik bo'lsa suv dimlanish zonasi uzunligi katta bo'ladi va oqiziqlar cho'kadigan maydon uzun va tarqoq bo'ladi;
- nishablik katta bo'lsa cho'kindilar yirik bo'ladi, kichik maydonda to'planadi, hajmi esa katta bo'ladi.

Suv omborini loyqa bosishi jarayoni har bir obyekt uchun o'ziga xosligi bilan farq qiladi va chuqur tahlilni talab qiladi. Masalan, kichik suv omborlarida loyqa bosish birdaniga butun suv ombori kosasi bo'ylab sodir bo'ladi. Suv omborini loyqa bosishi uning sig'imini kamaytirib, samaradorligini keskin pasaytiradi. Buning oldini olish uchun suv omborining ish rejimini to'g'ri tashkil qilish lozim.

Loyihalashtirish jarayonida loyqa bosish jarayoni vaqtga nisbatan hisoblanishi lozim. Bunda eng awal loyqa bosishning taxminiy muddatlari aniqlanadi. Mayda zarrachalarning qisman pastki befga o'tib ketishi hisobga olinmaydi. Loyihalashtirishda suv ombori loyqa bosishining davri quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\frac{W_{PCHO'KINDI}}{G} \quad (5.1)$$

Bu yerda:

W- suv ombori hajmi, mln. m<sup>3</sup>;

G - o'rtacha ko'p yillik oqiziqlar hajmi, mln. t/yil;

Pchoidndi ~ cho'kindilar zichligi, t/m<sup>3</sup>, grunt turiga qarab: 0,4-0,6 - loyqa uchun, 1,0-1,2 - qum aralash loyqa, 1,5 dan katta - qumsimon cho'kindilar uchun.

Suv omborini loyqa bosishi ikki etapga bo'linadi va bunda bajariladigan hisoblash usullari farq qiladi. Awalo dimlanish sohasida loyqa massasi bo'ylama nishablikda shakllanadi va o'zan shakllantiruvchi oqiziqqlarning tranzitini ta'minlaydi. Bunda loyqa massasining eng baland otmetkasi suv tashlagandagi eng past otmetkaga teng. Keyingi davrda to'g'on oldidagi loyqa massasining otmetkasi normal suv sathiga qadar ko'tariladi. Har bir etap oxirida loyqa massasida o'rtacha suv sarfini Qo o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lgan o'zan shakllanadi.

Loyqa massasining kengligi  $V$  va chuqurligi  $h$  ga teng bo'lib, oqimning boshqa parametrlari bilan quyidagicha bog'langan:

$$e = iil \quad (5.2)$$

$$y/B/hlr = R \quad (5.3)$$

$$v = Cy[iir.r \quad (5.4)$$

$$C = h y/n$$

$$\text{or } 7 \quad (5.5)$$

Bu yerda,

$R = 4...5$  g'adir-budurlikning morfologik bog'liqlik koeffitsienti, nr0-5;

$n$  - g'adir-budurlik koeffitsienti;

$I$  - loyqa massasidagi suv o'zanining bo'ylama nishabligi;

$u = 1/6$  - daraja ko'rsatkichi.

Bu sharoitda yuqoridan kelayotgan suvning tabiiy loyqaligi  $po$  ga teng bo'lgan oqiziqqlarning transport! ta'minlanishi lozim. U oqim tezligiga bog'liq bo'lib, quyidagicha aniqlanadi:

$$p = a^{(3)} \quad (5.6)$$

$a$  - empirik koeffitsient bo'lib, kuzatish natijalariga asoslanadi.

Bu tenglamalarni birgalikda yechib, loyqa bosgan hududda shakllanadigan nishablik aniqlanadi. Topografik ma'lumotlarga va aniqlangan nishablikka asosan loyqa prizmasi hajmi hisoblanadi. Hajm va suv omborida ushlanib qoladigan oqiziqqlarning o'rtacha miqdorini 16-formulaga qo'yib, loyqa bosishi davri aniqlanadi.

Agar bajarilgan hisoblar nitijasiga asosan bir necha o'n yillikda suv omborining kosasi katta miqdorga qisqaradigan bo'lsa, u holda II etap hisoblari amalga oshiriladi. Bunda oqiziqqlar balansi usuli qo'llanadi.

Suv omborlaridagi loyqa-cho'kindilar miqdorini aniqlashda va bashoratlashda ularning o'ziga xosligini hisobga oluvchi qator usullar ishlab chiqilgan. Birinchi guruh usullari amalda o'tkazilgan tabiiy dala tadqiqotlariga asoslanadi, ikkinchi guruh usullari suv omborlaridagi loyqalanish hajmini aniqlashda undagi oqimlar transport qilish qobiliyatining hisobiy stvorlardagi farqiga asoslanadi, uchinchi guruh usullarida loyqalanish hajmi o'zan va oqim xarakteristikalarining to'xtovsiz o'zgarib borishini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Tadqiqotchilar tomonidan suv omborlarini loyqa bosishini hisoblash usullari quyidagi tenglamalar ko'rinishida ifodalangan:

$$\frac{\partial p}{\partial l} + \gamma b \frac{\partial z}{\partial t} = 0. \quad (5.7)$$

Ushbu tenglamadan I.L.Levi, M.A Velikanov, M.A Mostkov va boshqalar foydalanganlar [6; 431 b., 109; 244 b.].

Bir qator tadqiqotchilar esa (1.1) formulani quyidagi ko'rinishda ifodalashgan:

$$(p_1 - p_2)\Delta t = (z_1 - z_2)\Delta l \gamma b. \quad (5.8)$$



$\frac{P_1}{\gamma'} = P'_i, \frac{P_2}{\gamma'} = P''_i, W_3 = (z_1 - z_2)\Delta lb$  ekanligini hisobga olsak u holda:

$$dW_3 = (P'_i - P''_i)dt. \quad (5.9)$$

Bunday ko'rinishdagi tenglamalardan V.S. Lapshenkov, I.A. Shneer, I.A. Kuzmin va boshqa tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida foydalanishgan [74; 89 b., 134; B. 5-152.].

K. Sh. Latipov, A.M. Arifjanovlar esa ko'p fazali harakatni ifodalovchi X. A. Raxmatulinning differensial tenglamalar sistemasidan foydalanishgan [7; 191 b., 8; B 202-205., 75; 110 b.].

Ushbu uslublar bir-biridan oqiziqnlarni hisoblashda turli xil ko'rinishdagi  $p = f(q, h, \mathcal{G})$  va  $\rho = f(\mathcal{G}, h, u)$  formulalardan foydalanilgani bilan farqlanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, (1.1) va (1.2) tenglamalarga asoslanuvchi bashoratlash usullari hisobiy interval davri davomida o'zgarmas hududlardagi o'zanning gidravlik elementlarini qabul qiladi, bu esa hisoblarning aniqlik darajasini tushiradi. Vaqt intervallarida cho'kindilarning qalinligi yuqori befning hisobiy chuqurligini 10-15% dan ortmagan miqdorida deb qabul qilinadi, bunday hisoblar xatoliklarga olib kelishi mumkin. Keltirilgan usullarning ijobiy tomoni shundaki, ular loyqa bosish jarayonini va oqiziqnlarning yuqori befga to'liq cho'kishini hisobga olishga, pastki befdan cho'kindilarni chiqishini ortish bosqichini to'liq tasvirlashga yordam beradilar.

(1.3.) ifodaga va empirik bog'lanishlarga asoslangan usullar ma'lum qo'llanilish me'yorlariga ega, chunki eksponensial yoki o'ziga xos ko'rinishdagi formulalar hisobi gidrouzelning boshlang'ich davridanoq cho'kindilar chiqishining ortishini ko'rsatadi.

Suv omborlarini loyqa bosishini hisoblashda T.Taylor, F.Ort, G.I. Shamovlarning formulalaridan ham foydalaniladi. Bunday usullarni uchunchi guruh usullariga kiritish mumkin [74; 89 b., 109; 244 b., 131; 139 b.].

e  
o  
o  
o  
amov  
a  
a  
o  
a  
e  
a  
a  
a  
E  
M

$$W_3 = W_H (1 - \varepsilon)^t. \quad (5.10)$$

amov suv omborlarida olib borgan tadqiqotlari asosida loyqa-cho'kindilarni hisoblash

$$W_{cs} = W_0 a^t = W_0 - \sum_0^t R_i \quad (5.11)$$

$$a = 1 - \frac{R_0}{W_0}. \quad (5.12)$$

$$W_3 = W_0 (1 - a^t). \quad (5.13)$$

Bir qator mualliflar hisobiy formulalar ishlab chiqishda suv sarfi doimiyliigi va oqim harakati tenglamalariga murojaat qilishadi. I.A. Buzunov va S.T. Altuninning uslublari biroz farq qiladi [6; 431 b.]. Bu uslub  $\rho = f(u)$  grafikdan qabul qilinadigan, ma'lum yiriklikdagi oqiziqqlar oqimi nagruzkasi kuzatiladigan turg'un oqim parametrlarini hisoblashga asoslangan. Suv ombori va barqaror o'zan hajmlari farqi loyqa bosishi hajmi sifatida qabul qilinadi. Oqiziqqlar

q  
a  
a  
b  
p  
,

miqdori har bir bosqich uchun pastki befga oqib keluvchi oqizqlar bir qismini hisoblash orqali topiladi.

YUqori beflarning loyqa bosish intensivligi tiniqlik darajasi  $\varepsilon$  (yuqori befda ushlab qolinayotgan cho'kindilar ulushi) bilan harakterlanadi, u esa o'z navbatida befning hajmi, suv sarfi, oqim loyqaligi hamda cho'kindilar tarkibiga bog'liqdir. Ushbu asosiy to'rtta ko'rsatkichlar bilan tiniqlik darajasini bog'liqligi bo'yicha quyidagi mulohazalarni keltirish mumkin. Ma'lumki, tabiiy yoki barqaror o'zi shakllangan o'zanlarda oqim muallaq oqizqlarning barcha zarrachalarini tashiydi. Bunday o'zan gidravlik elementlarining suv sarfini, oqimning loyqaliligini va zarrachalarning gidravlik o'lchamlarini hisobga oluvchi S.T. Altunin va I.A. Buzunovlarning formulalari orqali aniqlanishi mumkin. O'zan ko'ndalang kesim yuzasini dimlangan hudud uzunligiga ko'paytmasi barcha muallaq oqizqlarning oqim tomonidan tashilayotgan o'zani hajmi  $W_p$  ni beradi.  $W_h$  befning dastlabki hajmi o'z ichiga muallaq oqizqlarning barcha zarrachalarni tashuvchi tabiiy oqim o'zan hajmini qamrab oladi. Dimlanish bo'lmaganda befning hajmi mazkur o'zan hajmiga teng bo'ladi, chunki bu holatda tiniqlik darajasi nolga teng bo'ladi. To'liq loyqa bosgan holatda befning cho'kindilardan xoli qismining hajmi ham muallaq oqizqlar to'liqligicha pastki befga o'tib ketuvchi o'zan hajmiga teng bo'ladi.

Shunday qilib,  $W_h$  hajmli bef,  $W_p$  hajmga ega o'zanga teng bo'ladi, ya'ni  $\frac{W_p}{W_h} = 1$ , tiniqlik darajasi  $\varepsilon = 0$ .  $W_h > W_p$   $\frac{W_p}{W_h} < 1$  bo'lgan holatlarda tiniqlik darajasi  $\varepsilon > 0$ . Bundan

$$\varepsilon = f\left(\frac{W_p}{W_h}\right) \quad (5.14)$$

kelib chiqadi.

$f\left(\frac{W_p}{W_h}\right)$  ko'rinishdagi bog'liqlikni hosil qilishda tabiiy va laboratoriyada olingan ma'lumotlardan foydalanilgan.

Binobarin, birinchi bosqichda tiniqlik darajasi befga yig'ilayotgan oqizqlar hajmiga bog'liq emas.  $\frac{W_p}{W_y}$  ni 0,12 dan 1,0 gacha ortib borishi,  $\varepsilon$  ni 1,0 dan 0 gacha o'zgarishiga olib keladi. Shunday qilib, loyqa cho'kishining ikkinchi bosqichida oqizqlar yig'ilib hajmi ortishi bilan tiniqlik darajasining kamayishini harakterlaydi.

U  
s

Birinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish ko'rsatkichi yoki mezoni  $\frac{W_p}{W_h} = 0,12$

bo'lib hisoblanadi.

Ushbu mezonga asosan, suv omborining boshlang'ich hajmi

$$W'_h = \frac{W_p}{0,12} = 8,33W_p \quad (5.15)$$

i  
q  
o  
t  
l

tenglikni qanoatlantirsa, uning loyqa bosish jarayoni faqat ikkinchi bosqich bilan chegaralanadi. Bordini  $W'_y > 8,33W_p$  tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda loyqa bosish jarayoni avval birinchi, so'ngra ikkinchi bosqich ketma-ketligida amalga oshadi. Ushbu holat hisoblash usulida o'z aksini topishi kerak.

Tiniqlik darajasining ikkinchi zonada o'zgarishi quyidagi eng kichik kvadratlar usuli yordamida parametrlari hosil qilingan formula yordamida ifodalanishi mumkin:

$$\varepsilon = 0,041 \left( \frac{W_p}{W_h} \right)^{-1,5} \quad (5.16)$$

Ushbu (1.10) tenglikda  $\frac{W_p}{W_h} = 1$  bo'lsa,  $\varepsilon = 0$  o'rniga  $\varepsilon = 0,04$  bo'ladi. Lekin bu xatolik amaliy hisoblar uchun yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolik sanaladi. Biroq (1.10) formulani quyidagi ko'rinishida ifodalash mumkin.

$$\varepsilon = 0,041 \left[ \left( \frac{W_p}{W_h} \right)^{-1,5} - \frac{W_p}{W_h} \right] \quad (5.17)$$

U holda  $\frac{W_p}{W_h} = 1$  bo'lganda  $\varepsilon = 0$  bo'ladi. (1.10) hamda (1.11) formulalar  $\varepsilon = 1.0$  bo'lganida  $\frac{W_p}{W_h} = 0,1187 \approx 0,12$  qiymatga ega bo'ladi. Hosil bo'lgan bog'liqliklar suv omborlarining loyqa bosishini hisoblashda zarurdir.

Taklif qilingan usulning asosiy hisobiy formulalaridan biri oqiziqalar balansi tenglamasi hisoblanadi:

$$dW_3 = \varepsilon P_i dt \quad (5.18)$$

Birinchi bosqich loyqa bosishi  $\varepsilon = 1.0$  va (1.8) ifodaga asosan:

$$W'_3 = \int_0^t P_i dt = t_1 G_0 \quad (5.19)$$

ga ega bo'lamiz.

$$\text{Bundan} \quad t_1 = \frac{W'_3}{G_0} \quad (5.20)$$

Birinchi bosqichdagi loyqa bosish hajmini suv ombori to'liq hajmini  $W_h$  va ikkinchi bosqich loyqa bosishini (1.11) bo'yicha ifodalovchi  $W'_h$  hajmlar farqidan aniqlash mumkin:

$$W'_3 = W_h - W'_h = W_h - 8,33W_p \quad (5.21)$$

Suv omborlari qirg'oqlarining suv ustki qismlarini yillik deformatsiyasi  $G'_d$ . U holda (1.14) formula quyidagicha bo'ladi:

$$t_1 = \frac{W_h - 8,33W_p}{G_0 + G'_d} \quad (5.22)$$

Oqimning davriy o'zgarishlarini hisobga olgan holda (1.16) ni quyidagiga almashtirish mumkin:

$$W_3 = \sum_{i=0}^{t_1} G_i + t_1 G'_d \quad (5.23)$$

Bu erda  $\sum_{i=0}^{t_1} G_i$  -  $t_1$  qabul qilingan hisobiy davrlarga asosan aniqlanuvchi davrdagi oqizqlarning umumiy oqimi.

Hisobiy davr kam, o'rta va ko'p suvlilik yillarni qamrab olgan oqizqlar oqimining o'zgarish grafigiga yaqinlashtirib tanlanadi. Ushbu davrlarning davomiyligi 10-14 yil oralig'ida bo'lib, har bir daryo uchun alohida qabul qilinadi. Loyihalashtirilayotganda ma'lum davr uchun ma'lumotlar etarli bo'lmasa mavjud davrlarga qarab analogik jihatda to'ldiriladi. Ketma-ket kelgan davrlar ma'lum bir davrlarga o'xshashligiga ruxsat etiladi hamda loyqa bosishi hisobini gidrouzel ekspluatatsiyaga tushgan yildan boshlanadi.

Loyqa bosish jarayoni ikki bosqichdan iborat bo'lgan suv omborlarida, birinchi bosqichdan so'ng bo'sh hajm  $W'_h$  da ikkinchi bosqich boshlanadi.

Ushbu hajm loyqa bosishi darajasiga qarab qisqaradi, lekin oqim bo'yicha yuqoriga qarab dimlanganlik egri chizig'ining uzayishi hisobiga ma'lum bir  $W_2$  hajmga ortishi ham mumkin. Ikkinchi bosqichning boshlang'ich hajmi  $W'_h = W''_3 + W_2$  ifoda orqali aniqlanadi. Lekin ko'p hollarda sayoz va qamishlar o'sgan hududlar loyqa cho'kishidan xoli bo'ladi, shuning uchun ham hajmning bu tarzda ortishini e'tiborga olmasa ham bo'ladi. (1.10) formulani ikkinchi bosqich uchun quyidagi ko'rinishda yozamiz [6; 431 b., 109; 244 b.]:

$$\varepsilon = 0,041 \left( \frac{W_p}{W'_h - W_3} \right)^{-1,5} \quad (5.24)$$

(1.10) ni (1.17) ga qo'yib, o'zgaruvchilarni ajratib, integrallasak:

$$\int \frac{dW_3}{(W'_h - W_3)^{1,5}} + C = \frac{0,041}{W_p^{1,5}} \int_0^t P_i dt.$$

ifodani hosil qilamiz. Bundan esa

$$\frac{2}{(W'_h - W_3)^{0,5}} + C = \frac{0,041}{W_p^{1,5}} \int_0^t P_i dt \quad (5.25)$$

$C$  doimiysini  $t = 0$ ,  $W_3 = 0$  boshlang'ich shartni qo'llab aniqlaymiz:

$$\int_0^t P_i dt = 48,8 W_p^{1,5} \left( \frac{1}{\sqrt{W'_h - W_3}} - \frac{1}{\sqrt{W'_h}} \right). \quad (5.26)$$

(1.20) ifodaning chap qismidagi integral  $t$  vaqt orqlig'ida yuqori befga kelayotgan oqizqlarni ifodalaydi, agar  $t$  yillar bilan ifodalanayotgan bo'lsa, u yillik oqizqlarning oqim miqdorlari yig'indilariga almashtirilishi mumkin:

$$\int_0^t P_i dt = \sum_{i=0}^t G_i. \quad (5.27)$$

Agar o'rtacha ko'p yillik oqizqlar oqimini hisobga oladigan bo'lsak, u holda ifodaning chap qismi

$$\int_0^t P_i dt = t_2 G_0 \quad (5.28)$$

ko'rinishiga keladi.

Odatda  $G_0$  oqizqlar o'rtacha ko'p yillik oqimi sifatida qabul qilinadi. (5.29) ni hisobga olgan holda (1.20) ni quyidagicha qayta yozish mumkin:

$$t_2 = \frac{48,8}{G_0} W_p^{1,5} \left( \frac{1}{\sqrt{W'_h - W''_3}} - \frac{1}{\sqrt{W'_h}} \right) \quad (5.30)$$

YOki cho'kindilar hajmlarini hisoblash uchun:

$$W''_3 = W'_h - \frac{1}{\left( \frac{t_2 G_0}{48,8 W_p^{1,5}} + \frac{1}{\sqrt{W'_h}} \right)^2} \quad (5.31)$$

(1.21) hisobga olib, (1.20) formulani ushbu ko'rinishda yozish mumkin:

$$W''_3 = W'_h - \frac{1}{\left( \frac{t_2}{48,8 W_p^{1,5}} \sum_{i=0}^{t_2} G_i + \frac{1}{\sqrt{W'_h}} \right)^2} \quad (5.32)$$

Agar birinchi bosqich davomiyligi qisqa bo'lsa va qirg'oqlarning qayta shakllanishi ikkinchi bosqichda ham kuzatilsa, u holda hisoblarni quyidagi formula orqali bajarish tavsiya etiladi [110; 51 b.]:

$$W''_3 = W'_h - \sum_{i=0}^{t_2} G''_d - \frac{1}{\left( \frac{t_2}{48,8 W_p^{1,5}} \sum_{i=0}^{t_2} G_i + \frac{1}{\sqrt{W'_h - \sum_{i=0}^{t_2} G''_d}} \right)^2} \quad (5.33)$$

Bu erda  $G''_d$  - ikkinchi bosqich uchun qirg'oqlar qayta shakllanishining yillik hajmi. YUqori bef hajmini dimlanganlik egri chizig'ini uzayishi hisobiga ma'lum bir hajmga ortishi hisobga olinganda  $W'_h$  o'rniga  $W'_h + W_2$  olinadi. Birinchi hamda ikkinchi bosqichlar natijalarini yig'indisi:

$$T = t_1 + t_2 \quad ; \quad W_3 = W'_3 + W''_3 \quad .$$

Agar  $W'_h = 8,33 W_p$  hajm kam bo'lib,  $W_h$  5-6% ni tashkil etsa, ikkinchi bosqich hisoblarini e'tiborga olmasa ham bo'ladi. Ushbu holatda loyqa bosishi davomiyligini

$$T = \frac{W_h}{G_0} \quad (5.34)$$

ifoda bilan aniqlash mumkin.

Loyqa bosishining so'ngida hosil bo'luvchi turg'un o'zan hajmini S.T.Altuninning bog'lanishlari orqali yoki quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin.

$$W_p = \frac{Q_n}{g_p} \cdot \chi_n \quad (5.35)$$

Ushbu bog'liqlikka tegishli bo'lgan, ko'ndalang kesimlardagi hisobga asoslanuvchi S.T. Altunin formulalari orqali turli xil suv sarflarida barcha muallaq oqizqlar ko'chishining o'rtacha oqim tezligi Markaziy Osiyo daryolari uchun  $g_p = 1,0 - 1,2 \frac{M}{c}$  oralig'ida bo'ladi. Bu tezlik qiymatlari (1.28) formula orqali  $W_p$  ni hisoblashda qo'llanilishi mumkin.

Taklif etilayotgan usulning ustun tomonlarini yaqqol ko'rsatish uchun suv omborlari loyqa bosishi hisobi bo'yicha mavjud tavsiyalarni qo'llashda ma'lum shartlarni belgilash zarur.

Tiniqlik darajasi loyqa bosishi birinchi bosqichni oxirigacha befda yig'ilayotgan oqizqlarning hajmiga bog'liq bo'lmaydi va deyarli o'zgarishsiz qoladi. Ikkinchi bosqich boshlanishi bilan oq, tiniqlik darajasi befda cho'kgan oqizqlar hajmiga bog'liq bo'la boshlaydi [6; 431b.]:

$$\varepsilon = \varepsilon' - k \left( \frac{W_p}{W_n} \right) \quad (5.36)$$

$W_3 = W_0$  hamda  $\varepsilon = 0$  chegaraviy shartlardan  $k = \varepsilon'$  ekanligi ma'lum bo'ladi va (1.29) quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\varepsilon = \varepsilon' \left( 1 - \frac{W_3}{W_0} \right) \quad (5.37)$$

Ushbu ifoda V.S. Lapshenkov tomonidan boshqacharoq usulda hosil qilingan. (1.30) ifodaning tahlilidan ko'rinadiki, yuqori befda loyqa cho'kishi boshlanishi bilan ( $W_3 > 0$ ), tiniqlik darajasi  $\varepsilon'$  nisbatan kamayib boradi. Ushbu holat pastki befda chiqayotgan oqizqlarning ortishi bilan teng ahamiyatli bo'lib, faqatgina ikkinchi bosqich loyqa bosishining talablariga javob beradi.

(1.30) ni (1.12) bilan ehamiz hamda integrallaymiz.

$$-\ln(W_0 - W_3) + \ln C = \frac{t}{E} \quad (5.38)$$

Bu erdan:

$$C e^{-\frac{t}{E}} = W_0 - W_3. \quad (5.39)$$

$t = 0$  da  $W_3 = 0$  chegaraviy shartni qo'llasak  $C = W_0$  ni va (1.32) ifodadan V.S.Lapshenkovning formulasiga kelamiz.

$$W_3 = W_0 \left( 1 - e^{-\frac{t}{E}} \right) \quad (5.40)$$

(1.33) ifodadan faqat ikkinchi bosqich loyqa bosishi hisoblarini bajarishda foydalanish mumkin, chunki uni keltirib chiqarishda ikkinchi bosqich qonuniyatlari bo'yicha loyqa cho'kayotgan beflar uchun tegishli bo'lgan (1.30) formuladan foydalanildi.

Suv omborining qolgan qismlariga oqiziqalar ma'lum vaqtdan keyin tarqaladi. Faqatgina hisoblarni bajarishda loyqa bosishi bosqichlarini e'tiborga olish, suv omborlarini to'g'ri loyihalash imkonini beradi. Lekin amaliyotda suv omborlarini loyihalaganda havzalarni tadqiq etishga asoslangan usullardan foydalanish kuzatiladi.

J. Bryune suv omborlarida loyqa oqiziqalarni baholashda havza hajmi  $W_k$  ni, daryo yoki irmoqni o'rtacha yillik oqimi  $W_{cz}$  ga nisbatining mezonlaridan foydalangan va u 44 ta suv omboridan olingan ma'lumotlar asosida grafik tuzgan [74; 89 b., 148; B. 617-635].

Suv omborlarida loyqa-cho'kindilarning yillik akkumulyatsiyasini hisoblashda A.V. Karashev quyidagi nazariy bog'liqlikka ega bo'ldi [74; 89 b., 109; 244 b.]:

$$\varepsilon = 1 - \left(1 - \tilde{W}\right) e^{-\frac{\psi \tilde{W}}{1 - \tilde{W}}} \quad (5.41)$$

Bu erda  $\tilde{W} = \frac{W}{W_{cz}}$  bo'lib, J. Bryune empirik chiziqli tenglamalari bilan faqat  $\psi = 35$

bo'lganida mos keladi.

J. Bryune va A.V. Karashevlar olib borgan ilmiy tadqiqotlaridan foydalanib F.Sh Murotov quyidagi natijalarga erishgan [109; 244 b.]:

(1.34) formula suv omborlari va havzalarning loyqa bosish shartlarini ta'riflab berar ekan, uni vaqtga nisbatan loyqa bosish hajmining o'zgarishini umumiy hisoblash bog'liqligini ifodalash uchun ishlatish mumkin. (1.34) formulani loyqa bosish shartlari uchun quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:

$$\varepsilon = 1 - \left(1 - \frac{W - W_3}{W_{cz}}\right) e^{-\frac{\frac{W - W_3}{W_{cz}}}{1 - \frac{W - W_3}{W_{cz}}}} \quad (5.42)$$

(1.35) ni (1.12) bilan echib va  $x = 1 - \frac{W - W_3}{W_{cz}}$  ni qabul qilib, quyidagicha yozish

mumkin:

$$\int_{x_0}^x \frac{dx}{1 - xe^{\frac{\psi(1-x)}{x}}} = \int_0^t P_i dt = \sum_{i=0}^t G_i \quad (5.43)$$

(1.36) tenglama F.Sh. Murotov tomonidan sonli integrallash usulidan foydalanib echilgan va  $\psi$  ning turli qiymatlarida loyqa bosish hisobi tuzilgan.

M.R. Ikramovanning tadqiqot ishlarida suv omborini loyqa bosishi hajmi va muddatini bashorat qilinayotganda suv omborining turli ish rejimlari uchun quyidagi hisoblash tartibi keltirilgan [58; B 176-180., 62; B. 250-256.]:

*I - bosqich.* Agar sathning o'zgarishi NDS dan  $N_s$  gacha bo'lgan diapazonda o'zgarsa, suv omborini loyqa bosishi jarayoni kuzatiladi. Bunda suv omborining bo'shatilishi va to'ldirilishi jarayonida oqiziqalar cho'kishi hajmi quyidagi formulaga asosan aniqlanadi:

$$\Delta W_{cho'k} = 1,2\rho_{vx}W_{pr} \left(1 - \frac{W_{bosh}}{W_{ox}}\right) (1 - \varepsilon), \quad (5.44)$$

bu erda  $\rho_{vx}$  – suv omboriga kirayotgan oqim loyqaligi, kg/m<sup>3</sup>;  $W_{pr}$  – kelayotgan suv hajmi, mln.m<sup>3</sup>;  $W_{bosh}, W_{ox}$  – boshlang‘ich va oxirgi hajmlar, mln.m<sup>3</sup>;  $W_{pr}$ – suv omboridan suv chiqarilayotgandagi daryo oqimi hajmi.

2 - bosqich. Bunda hisobiy sathlar va otmetkalar nisbatining uchta varianti ko‘riladi:

A) Qachonki  $N_{NU} > H_s$  va  $N_{KU} < N_s$  qo‘shma otmetkagacha bo‘lganda oqiziqalar cho‘kishi jarayoni kuzatiladi va ularning hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta W_{cho'k} = 1,2\rho_{vx}W_{pr}\varepsilon A . \quad (5.45)$$

$$\text{Bu erda } A = \frac{H_{NU}-H_s}{H_{NU}-H_{KU}}.$$

Suv omborida suv sathining otmetkasi qo‘shma otmetkadan pastda bo‘lganda yuvilgan cho‘kindilar pastki befga oqadi va ularning hajmi ushbu formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta W_{yuv} = 1,2\rho_{yuk}[W_{pr}(1 - A) + (W_s - W_{ox})], \quad (5.46)$$

Bu erda  $W_{pr}$  – sathlar  $H_{NU}$  dan  $H_s$  gacha o‘zgaradi;  $\rho_{dop}$  - oqimga tub cho‘kindilarning yuvilishi hisobiga bo‘ladigan yuklama, kg/m<sup>3</sup>. Uni aniqlash formulasi:

$$\rho_{yuk} = \frac{B_r^1\mu(H \sum cho'k - H_{KU})}{1,2iQ_r^1}, \quad (5.47)$$

Bu erda  $\mu$  – cho‘kindining yuvilish jadalligi, mm/sek;  $H \sum cho'k$  – cho‘kindilar otmetkasi, loyihaviy hajmlar grafigiga asosan belgilanadi;  $Q_r^1$ – o‘rtacha oylik suv kelishi, m<sup>3</sup>/s;  $B_r^1 - Q_r^1$  ga mos bo‘lgan o‘zan kengligi, m.

B) Qachonki  $H_{NU} < H_s < H_{KU}$  bo‘lganda yuvilayotgan tub cho‘kindilar oqim bilan pastki befga chiqariladi va hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta W_{yuv} = 1,2\rho_{vx}W_r^1 \quad (5.48)$$

Bu erda  $W_r^1 = Q_r^1 \frac{H_s - H_{KU}}{\mu}$ . Agar  $W_r^1 > W_{pr}$  bo‘lsa, hisob uchun  $W_{pr}$  qabul qilinadi. O‘zan kengligi ushbu formula bilan aniqlanadi:

$$B_r^1 = \frac{Q_r^1}{V_r N_r} \quad (5.49)$$

Bu erda  $V_r - 1,0 \div 1,2$  m/s;  $N_r$  – turg‘un o‘zan chuqurligi, m.

V)  $H_{NU} < H_s$  va  $H_{KU} > H_s$  shartlarda suv ombori to‘ldirilishi jarayoni yuz beradi. Bu holda yuvilish hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta W_{yuv} = 1,2\rho_{yuk}[W_{pr}(1 - A) + (W_{bosh} - W_s)] \quad (5.50)$$

Suv omborida suv sathining qo‘shma otmetkadan oxirgi hisobiy otmetkagacha ko‘tarilishida cho‘kindilar hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta W_{cho'k} = 1,2\rho_{vx}W_{pr} \left[ (1 - A) - \left( 1 - \frac{AW_s}{W_{ox}} \right) (1 - \varepsilon) \right] \quad (5.51)$$

Shunday qilib, suv omborini loyqa bosishi hajmi hisoblanganda hisobiy davrgacha bo‘lgan cho‘kindi hajmi va yilning suvlilik darajasini e‘tiborga olinadi.

Suv omborlarini ekasplutatsiya qilishda suv omborlaridagi mavjud suv zahirasini aniq bilish lozim. Buning uchun esa suv omborining loyqa-cho‘kindilar miqdorini o‘lchov – kuzatuv hisoblar orqali aniqlashtirib borish shart bo‘ladi. Shundan so‘ng suv omborida belgilangan rejadagi suv miqdorini to‘plash, iste‘molchilarni uzluksiz va ishonchli suv bilan ta‘minlash imkoniyati oshadi. Quyida olib borilgan kuzatuv ma‘lumotlari asosida suv omborlaridagi loyqa-cho‘kindilar miqdori o‘zgarishini keltirib o‘tamiz [30; B. 169-172.].

Janubiy Surxon suv omborining loyihaviy hisob bo‘yicha yillik loyqa cho‘kishi hajmi 6,8 mln.m<sup>3</sup> ga teng ekanligi ta‘kidlangan. Foydalanilmaydigan hajmining (90 mln.m<sup>3</sup>) loyqa-



cho‘kindilar bilan to‘lish muddati 18 yil deb keltirilgan bo‘lsa, suv omborining to‘la hajmi 120 yilga teng deb ko‘rsatib o‘tilgan. Suv omborida o‘tkazilgan 1975 yildagi o‘lchov–kuzatuv ma’lumotlariga ko‘ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1962–1975 yillardagi loyqa-cho‘kindilar hajmi 139 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan.

Shundan so‘ng 2002 yilda Janubiy Surxon suv omboridagi loyqa-cho‘kindilar miqdorini aniqlash bo‘yicha “Botiometrik markaz” davlat unitar korxonasi tomonidan navbatdagi o‘lchov–kuzatuvlar olib borilgan va unda quyidagi holatlar aniqlangan:

- to‘liq suv hajmi – 503 mln.m<sup>3</sup>,
- foydali suv hajmi – 481,75 mln.m<sup>3</sup>,
- o‘lik suv hajmi – 21,25 mln.m<sup>3</sup>,
- to‘liq suv sathining yuzasi – 57 km<sup>2</sup>,
- loyqa-cho‘kindi miqdori – 297 mln.m<sup>3</sup>.

Suv omborida so‘ngi bor loyqa-cho‘kindilar miqdori 2007 yili “Botiometrik markaz” davlat unitar korxonasi tomonidan o‘lchangan va unda quyidagilar aniqlashtirilgan. Bunda suv omborining to‘liq suv hajmi 464,48 mln.m<sup>3</sup> ga, foydali suv hajmi 449,25 mln.m<sup>3</sup> ga, o‘lik suv hajmi 15,23 mln.m<sup>3</sup> ga, loyqa-cho‘kindilar miqdori 335,52 mln.m<sup>3</sup> ga teng deb keltirilgan.

Janubiy Surxon suv ombori ekspluatatsiyasi davrida loyqa-cho‘kindilar miqdorini aniqlash bo‘yicha olib borilgan kuzatuvlar natijalari 5.1-jadvalda keltirilgan.

5.1-jadval.

Janubiy Surxon suv omboridagi loyqa-cho‘kindilar miqdori

Yillar	Kuzatuvlar asosida olingan loyqa-cho‘kindilar, mln.m <sup>3</sup>	O‘rtacha bir yillik, mln.m <sup>3</sup>
1975	139,0	10,7
2002	297,0	5,9
2007	335,52	7,7

Janubiy Surxon suv omborining loyihaviy bashorat bo‘yicha loyqa-cho‘kindilar miqdori yiliga o‘rtacha 6,8 mln.m<sup>3</sup> bo‘lishi kerak edi. Olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatishicha bu holat faqat 1975 – 1986 yillardagi kuzatuvlarga mos keladi. Hozirgi kunda esa suv omborini loyqa-cho‘kindilarga to‘lishi birmuncha tezlashgan.

**Kattaqo‘rg‘on suv omborining** loyihaviy hisob bo‘yicha loyqa bosish hajmi 698600 m<sup>3</sup>/yilga teng bo‘lgan (1940 yilgi loyiha bo‘yicha suv ombori hajmi 662 mln.m<sup>3</sup> bo‘lganda).

Kattaqo‘rg‘on suv omboridagi loyqa-cho‘kindilar miqdorini aniqlash bo‘yicha “Samarqanddavsuvloyiha” instituti tomonidan 1991 va 1999 yillari tadqiqot ishlari olib borilgan va 1991 yildagi kuzatuvlarga asosan quyidagi holatlar aniqlangan:

- to‘liq suv hajmi – 829,4 mln.m<sup>3</sup>,
- foydali suv hajmi – 821,56 mln.m<sup>3</sup>,
- o‘lik suv hajmi - 7,84 mln.m<sup>3</sup>.

Shundan so‘ng 2003 yili suv omborida yana bir bor loyqa-cho‘kindilar miqdorini aniqlash maqsadida “Botiometrik markaz” davlat unitar korxonasi tomonidan o‘lchovlar olib borilgan va suv omborining to‘liq suv hajmi 697,46 mln.m<sup>3</sup> ga, foydali suv hajmi 694,34 mln.m<sup>3</sup> ga, o‘lik suv hajmi 3,12 mln.m<sup>3</sup> ga, to‘liq suv sathining yuzasi 84,5 km<sup>2</sup> ga, loyqa-cho‘kindi miqdori esa 202,54 mln.m<sup>3</sup> ga teng ekanligi aniqlangan.

Kattaqo‘rg‘on suv ombori ekspluatatsiyasi davrida loyqa-cho‘kindilar miqdorini aniqlash bo‘yicha olib borilgan kuzatuvlar natijalari 5.2-jadvalda keltirilgan.

5.2-jadval.

### Kattaqo'rg'on suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdori


	Kuzatuvlar asosida olingan loyqa-cho'kindilar, mln.m <sup>3</sup>	O'rtacha bir yillik, mln.m <sup>3</sup>
1960		3,1
1975	59,12	2,4
1985		0,6
1991	70,6	1,14
1999	82,64	1,39
2003	202,54	

Loyihaviy bashorat bo'yicha loyqa-cho'kindilar miqdori yiliga o'rtacha 0,7 mln.m<sup>3</sup> bo'lishi kerak edi. Olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, bu holat faqat 1975–1986 yillardagi kuzatuvlarga mos keladi. Oxirgi yillardagi kuzatuv ma'lumotlari loyqa-cho'kindilar miqdori oshganligini ko'rsatmoqda.

**Qamashi suv omborining** loyihaviy hisob bo'yicha o'lik hajmini (1.2 mln.m<sup>3</sup>) loyqa-cho'kindilarga to'lish muddati 20 yilga teng deb ko'rsatib o'tilgan.

“Uzgirovodxoz” institutining 1995 yildagi kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1957-1995 yillardagi loyqa-cho'kindilar hajmi 1,6 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan.

Qamashi suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining o'zgarishi grafigi 2.8-rasmda keltirilgan.




5.3-rasm. Qamashi suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining o'zgarish grafigi

Olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, Qamashi suv omborida loyqa-cho'kindilar miqdori loyihaviy bashoratdagiga nisbatan oxirgi yillarda jadallashgan.


**Dehqonobod sel suv omborining** loyihaviy hisob bo'yicha o'lik suv hajmini (3,0 mln.m<sup>3</sup>) loyqa-cho'kindilarga to'lish muddati 50 yilga teng deb ko'rsatib o'tilgan.

Suv omborida 2010 yilda o'tkazilgan kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1981-2010 yillardagi loyqa-cho'kindilar miqdori yiliga o'rtacha 400-410 ming.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, Dehqonobod sel suv omborida loyqa-cho'kindilar miqdori loyihaviy bashoratdagiga nisbatan oxirgi yillarda jadallashgan. Suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining o'zgarishi grafigi 2.9-rasmda keltirilgan.



5.4-rasm. Dehqonobod suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining o'zgarish grafigi

**Qorabog' suv omborining** loyihaviy hisobi bo'yicha o'lik suv hajmining (1.2 mln.m<sup>3</sup>) loyqa-cho'kindilarga to'lish muddati 21 yilga teng deb ko'rsatib o'tilgan. Suv omborida 2010 yilda olib borilgan kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1977-2010 yillardagi loyqa-cho'kindilar miqdori yiliga o'rtacha 73 ming.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Qorabog' suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining o'zgarishi grafigi 2.10-rasmda keltirilgan.



**Oqdaryo suv omborining** loyihaviy hisobi bo'yicha o'lik suv hajmining loyqa-cho'kindilarga to'lish muddati 20 yil deb belgilangan. Suv omborini ekspluatatsiya qilish davrida loyqalangan hajmini aniqlash bo'yicha bir qancha kuzatuvlar olib borilgan va 1997 yilda o'tkazilgan kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1983-1997 yillardagi loyqa-cho'kindilar miqdori 11,80 mln.m<sup>3</sup> ni, 2004 yilda o'tkazilgan kuzatuvlarga ko'ra loyqa-cho'kindilar hajmi esa 19,33 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Oqdaryo suv ombori ekspluatatsiyasi davrida loyqa-cho'kindilar miqdorini aniqlash bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar natijalari 2.3-jadvalda keltirilgan.

5.3-jadval.

Oqdaryo suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdori

	Kuzatuvlar asosida olingan loyqa-cho'kindilar, mln.m <sup>3</sup>	O'rtacha bir yillik, mln.m <sup>3</sup>

1997	11,8	0,843
2004	19,33	0,920

Oxirgi yillardagi kuzatuv ma'lumotlari natijasiga ko'ra Oqdaryo suv omboridagi loyqa-cho'kindilarning o'rtacha yillik miqdori loyihaviy bashorat miqdoriga nisbatan oshganligini ko'rsatmoqda.

**Jizzax suv omborining** loyiha bo'yicha loyqa-cho'kindilarga to'lish muddati 100 yil deb belgilangan. Suv omborini ekspluatatsiya qilish davrida loyqalangan hajmini aniqlash bo'yicha bir qancha kuzatuvlar olib borilgan. O'tkazilgan 1996 yildagi kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1973-1996 yillardagi loyqa-cho'kindilar hajmi 17,80 mln.m<sup>3</sup> ni, 2003 yildagi kuzatuvlarga ko'ra loyqa-cho'kindilar hajmi 19,92 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Jizzax suv ombori ekspluatatsiyasi davrida loyqa-cho'kindilar miqdorini aniqlash bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar natijalari 5.4-jadvalda keltirilgan.

5.4-jadval.

Jizzax suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdori

	Kuzatuvlar asosida olingan loyqa-cho'kindilar, mln.m <sup>3</sup>	O'rtacha bir yillik, mln.m <sup>3</sup>
1979	8,0	0,727
1996	17,80	0,635
2003	19,92	0,569

Oxirgi yillardagi kuzatuv ma'lumotlari natijasiga ko'ra Jizzax suv omboridagi loyqa-cho'kindilarning o'rtacha yillik miqdori loyihaviy bashorat miqdoriga nisbatan oshganligini ko'rsatmoqda.

Olib borilgan kuzatuv va fond ma'lumotlariga ko'ra suv omborlaridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining quyidagi ko'rsatkichlarini keltirish mumkin.

- Hisorak suv omborida loyqa bosgan sath suv chiqaruvchi inshootning kirish qismidan 3,0 m baland. Shuning uchun YUBS past bo'lganda suv chiqaruvchi tunnelga loyqa va yirik cho'kindilarning kirib, uni ishdan chiqarishi va to'g'onga xavf tug'dirishi mumkin.

- Toshkent suv omborida loyqa-cho'kindilar miqdori loyihadagiga nisbatan 2 marotaba ortiqligi kuzatilgan.

- Jizzax suv omborida loyqa-cho'kindilar miqdori loyihadagiga nisbatan 8 marotaba ortiqligi kuzatilgan.

- Quyimozor suv omborida olib borilgan tadqiqot va kuzatuv ma'lumotlarga asosan suv omborida loyqa-cho'kindilar miqdori loyihadagiga nisbatan 2,9 marotaba ortiqroq to'planganligi kuzatilgan, bunga sabab shamol to'liqlari ta'sirida qirg'oqlarning shakllanishi jadal holatda bo'lgan.

- Chimqo'rg'on suv omborida loyqa-cho'kindilarning cho'kish miqdori loyihadagiga nisbatan 3 marotaba ortiqligi kuzatilgan.

- Pachkamar suv omborida o'tkazilgan tadqiqotlar va olib borilgan o'lchov natijalari xulosalariga ko'ra suv omborida loyqaning cho'kishi loyihadagiga nisbatan 3,7 marotaba ortiqligi aniqlangan.

- Janubiy Surxon suv omborida 1975, 1985 va 2002 yillardagi o'lovlarda aniqlanishicha loyqa cho'kishi loyihadagiga nisbatan 1,3 marotaba ortiqligi kuzatilgan.

- Oqdaryo, Qo'rg'ontepa, Qalqama suv omborlarida qirg'oqlarning buzilishi jadallashganligi sababli suv omborida to'liq uzunligini hisoblash talab etiladi.

- Kattaqo'rg'on suv omborining loyihaviy bashorat bo'yicha loyqa-cho'kindilar miqdori yiliga o'rtacha 0,7 mln.m<sup>3</sup> ekanligi ta'kidlangan. Olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha esa bu holat faqat 1975–1986 yillardagi kuzatuvlarga mos keladi. Suv omborida olib borilgan oxirgi yillardagi kuzatuv ma'lumotlari esa suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining oshganligini ko'rsatmoqda, ya'ni suv omborida 202,5 mln.m<sup>3</sup> loyqa-cho'kindilar cho'kkan bo'lib bu yiliga o'rtacha 3,31 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etadi, bu esa loyihadagiga nisbatan 4,7 marta ortiqligini ko'rsatmoqda.

- Dehqonobod suv omborining 2010 yildagi kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasi davrida loyqa-cho'kindilar miqdori yiliga o'rtacha 400–410 ming.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Ushbu tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Dehqonobod suv omborida loyqa – cho'kindilar miqdori loyihaviy bashoratdagiga nisbatan oxirgi yillarda jadallashgan. Suv omborida loyqa-cho'kindilarning ortishiga qirg'oqlarning shakllanishidagi holatlar ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Asosan loyqa-cho'kindilar sel-toshqin suvlaridan kelishi kuzatilgan.

- Qorabog' suv omborida so'ngi marta o'tkazilgan o'lov-kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdori yiliga o'rtacha 73 ming.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Loyqalanishning asosiy sabablari loyqa-oqiziqqlarning quyilishi natijasida va qirg'oqlarning shakllanishidan hosil bo'lgan.

- Oqdaryo suv omborini ekspluatatsiya qilish davrida suv omborining loyqalangan hajmini aniqlash bo'yicha olib borilgan kuzatuvlarga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1983–1997 yillardagi loyqa-cho'kindilar miqdori 11,80 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etgan bo'lsa, so'ngi marta olib borilgan kuzatuvlarga asosan esa suv omborining loyqa-cho'kindilar hajmi 19,33 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Oqdaryo suv omborini loyqa-cho'kindilarga to'lishining asosiy sabablaridan biri suv ombori qirg'oqlarida o'pirilishlar, buzilishlar va ko'chkilar sabab bo'lgan. Chunki o'lov ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, suv omborining to'liq suv sathidagi yuza maydoni loyihadagi maydondan 1,27 km<sup>2</sup> ga kengaygan.

Havzaning loyqa-cho'kindilarga to'lish tezligi loyihada ko'rsatilganidan yuqori bo'lishiga asosiy sabablardan, loyihada ham, suv omborlaridan foydalanish jarayonida ham, loyqa-cho'kindilarga qarshi chora-tadbirlar ko'zda tutilmaganligida deb hisoblash mumkin.

### **omborlaridagi loyqa-cho'kindilar miqdorini baholash**

Suv omborlarini ekspluatatsiya qilishda suv omborlaridagi mavjud suv zahirasini aniq bilish lozim. Buning uchun esa suv omborining loyqa-cho'kindilar miqdorini o'lov –kuzatuv hisoblar orqali aniqlashtirib borish shart bo'ladi. Shundan so'ng suv omborida belgilangan rejadagi suv miqdorini to'plash, iste'molchilarni uzluksiz va ishonchli suv bilan ta'minlash imkoniyati oshadi. Quyida olib borilgan kuzatuv ma'lumotlari asosida suv omborlaridagi loyqa-cho'kindilar miqdori o'zgarishini keltirib o'tamiz [30; B. 169-172.].

Janubiy Surxon suv omborining loyihaviy hisob bo'yicha yillik loyqa cho'kishi hajmi 6,8 mln.m<sup>3</sup> ga teng ekanligi ta'kidlangan. Foydalanilmaydigan hajmining (90 mln.m<sup>3</sup>) loyqa-cho'kindilar bilan to'lish muddati 18 yil deb keltirilgan bo'lsa, suv omborining to'la hajmi 120 yilga teng deb ko'rsatib o'tilgan. Suv omborida o'tkazilgan 1975 yildagi o'lov-kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1962–1975 yillardagi loyqa-cho'kindilar hajmi 139 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan.

Shundan so‘ng 2002 yilda Janubiy Surxon suv omboridagi loyqa-cho‘kindilar miqdorini aniqlash bo‘yicha “Botiometrik markaz” davlat unitar korxonasi tomonidan navbatdagi o‘lchov-kuzatuvlar olib borilgan va unda quyidagi holatlar aniqlangan:

- to‘liq suv hajmi – 503 mln.m<sup>3</sup>,
- foydali suv hajmi – 481,75 mln.m<sup>3</sup>,
- o‘lik suv hajmi – 21,25 mln.m<sup>3</sup>,
- to‘liq suv sathining yuzasi – 57 km<sup>2</sup>,
- loyqa-cho‘kindi miqdori – 297 mln.m<sup>3</sup>.

Suv omborida so‘ngi bor loyqa-cho‘kindilar miqdori 2007 yili “Botiometrik markaz” davlat unitar korxonasi tomonidan o‘lchangan va unda quyidagilar aniqlashtirilgan. Bunda suv omborining to‘liq suv hajmi 464,48 mln.m<sup>3</sup> ga, foydali suv hajmi 449,25 mln.m<sup>3</sup> ga, o‘lik suv hajmi 15,23 mln.m<sup>3</sup> ga, loyqa-cho‘kindilar miqdori 335,52 mln.m<sup>3</sup> ga teng deb keltirilgan.

Janubiy Surxon suv ombori ekspluatatsiyasi davrida loyqa-cho‘kindilar miqdorini aniqlash bo‘yicha olib borilgan kuzatuvlar natijalari 5.5-jadvalda keltirilgan.

5.5-jadval.

Janubiy Surxon suv omboridagi loyqa-cho‘kindilar miqdori

Yillar	Kuzatuvlar asosida olingan loyqa-cho‘kindilar, mln.m <sup>3</sup>	O‘rtacha bir yillik, mln.m <sup>3</sup>
1975	139,0	10,7
2002	297,0	5,9
2007	335,52	7,7

Janubiy Surxon suv omborining loyihaviy bashorat bo‘yicha loyqa-cho‘kindilar miqdori yiliga o‘rtacha 6,8 mln.m<sup>3</sup> bo‘lishi kerak edi. Olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatishicha bu holat faqat 1975 – 1986 yillardagi kuzatuvlarga mos keladi. Hozirgi kunda esa suv omborini loyqa-cho‘kindilarga to‘lishi birmuncha tezlashgan.

**Kattaqo‘rg‘on suv omborining** loyihaviy hisob bo‘yicha loyqa bosish hajmi 698600 m<sup>3</sup>/yilga teng bo‘lgan (1940 yilgi loyiha bo‘yicha suv ombori hajmi 662 mln.m<sup>3</sup> bo‘lganda).

Kattaqo‘rg‘on suv omboridagi loyqa-cho‘kindilar miqdorini aniqlash bo‘yicha “Samarqanddavsuvloyiha” instituti tomonidan 1991 va 1999 yillari tadqiqot ishlari olib borilgan va 1991 yildagi kuzatuvlarga asosan quyidagi holatlar aniqlangan:

- to‘liq suv hajmi – 829,4 mln.m<sup>3</sup>,
- foydali suv hajmi – 821,56 mln.m<sup>3</sup>,
- o‘lik suv hajmi - 7, 84 mln.m<sup>3</sup>.

Shundan so‘ng 2003 yili suv omborida yana bir bor loyqa-cho‘kindilar miqdorini aniqlash maqsadida “Botiometrik markaz” davlat unitar korxonasi tomonidan o‘lchovlar olib borilgan va suv omborining to‘liq suv hajmi 697,46 mln.m<sup>3</sup> ga, foydali suv hajmi 694,34 mln.m<sup>3</sup> ga, o‘lik suv hajmi 3,12 mln.m<sup>3</sup> ga, to‘liq suv sathining yuzasi 84,5 km<sup>2</sup> ga, loyqa-cho‘kindi miqdori esa 202,54 mln.m<sup>3</sup> ga teng ekanligi aniqlangan.

Kattaqo‘rg‘on suv ombori ekspluatatsiyasi davrida loyqa-cho‘kindilar miqdorini aniqlash bo‘yicha olib borilgan kuzatuvlar natijalari 5.6-jadvalda keltirilgan.

5.6-jadval.

Kattaqo‘rg‘on suv omboridagi loyqa-cho‘kindilar miqdori

	Kuzatuvlar asosida olingan loyqa-cho‘kindilar, mln.m <sup>3</sup>	O‘rtacha bir yillik, mln.m <sup>3</sup>
--	---	---


1960		3,1
1975	59,12	2,4
1985		0,6
1991	70,6	1,14
1999	82,64	1,39
2003	202,54	

Loyihaviy bashorat bo'yicha loyqa-cho'kindilar miqdori yiliga o'rtacha 0,7 mln.m<sup>3</sup> bo'lishi kerak edi. Olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, bu holat faqat 1975–1986 yillardagi kuzatuvlarga mos keladi. Oxirgi yillardagi kuzatuv ma'lumotlari loyqa-cho'kindilar miqdori oshganligini ko'rsatmoqda.

**Qamashi suv omborining** loyihaviy hisob bo'yicha o'lik hajmini (1.2 mln.m<sup>3</sup>) loyqa-cho'kindilarga to'lish muddati 20 yilga teng deb ko'rsatib o'tilgan.

“Uzgirovodxoz” institutining 1995 yildagi kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1957-1995 yillardagi loyqa-cho'kindilar hajmi 1,6 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan.

Qamashi suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining o'zgarishi grafigi 5.6-rasmda keltirilgan.




5.6-rasm. Qamashi suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining o'zgarish grafigi

Olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, Qamashi suv omborida loyqa-cho'kindilar miqdori loyihaviy bashoratdagiga nisbatan oxirgi yillarda jadallashgan.


**Dehqonobod sel suv omborining** loyihaviy hisob bo'yicha o'lik suv hajmini (3,0 mln.m<sup>3</sup>) loyqa-cho'kindilarga to'lish muddati 50 yilga teng deb ko'rsatib o'tilgan.

Suv omborida 2010 yilda o'tkazilgan kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1981-2010 yillardagi loyqa-cho'kindilar miqdori yiliga o'rtacha 400-410 ming.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, Dehqonobod sel suv omborida loyqa-cho'kindilar miqdori loyihaviy bashoratdagiga nisbatan oxirgi yillarda jadallashgan. Suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining o'zgarishi grafigi 5.7-rasmda keltirilgan.



5.7-rasm. Dehqonobod suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining o'zgarish grafigi

**Qorabog' suv omborining** loyihaviy hisobi bo'yicha o'lik suv hajmining (1.2 mln.m<sup>3</sup>) loyqa-cho'kindilarga to'lish muddati 21 yilga teng deb ko'rsatib o'tilgan. Suv omborida 2010 yilda olib borilgan kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1977-2010 yillardagi loyqa-cho'kindilar miqdori yiliga o'rtacha 73 ming.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Qorabog' suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining o'zgarishi grafigi 5.8-rasmda keltirilgan.



miqdo:

**Oqdaryo suv omborining** loyiha bo'yicha o'lik suv hajmini loyqa-cho'kindilarga to'lish muddati 20 yil deb belgilangan. Suv omborini ekspluatatsiya qilish davrida loyqalangan hajmini aniqlash bo'yicha bir qancha kuzatuvlar olib borilgan va 1997 yilda o'tkazilgan kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1983-1997 yillardagi loyqa-cho'kindilar miqdori 11,80 mln.m<sup>3</sup> ni, 2004 yilda o'tkazilgan kuzatuvlarga ko'ra loyqa-cho'kindilar hajmi esa 19,33 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Oqdaryo suv ombori ekspluatatsiyasi davrida loyqa-cho'kindilar miqdorini aniqlash bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar natijalari 5.7-jadvalda keltirilgan.

5.7-jadval.

Oqdaryo suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdori

	Kuzatuvlar asosida olingan loyqa-cho'kindilar, mln.m <sup>3</sup>	O'rtacha bir yillik, mln.m <sup>3</sup>
1997	11,8	0,843
2004	19,33	0,920



Oxirgi yillardagi kuzatuv ma'lumotlari natijasiga ko'ra Oqdaryo suv omboridagi loyqa-cho'kindilarning o'rtacha yillik miqdori loyihaviy bashorat miqdoriga nisbatan oshganligini ko'rsatmoqda.

**Jizzax suv omborining** loyiha bo'yicha loyqa-cho'kindilarga to'lish muddati 100 yil deb belgilangan. Suv omborini ekspluatatsiya qilish davrida loyqalangan hajmini aniqlash bo'yicha bir qancha kuzatuvlar olib borilgan. O'tkazilgan 1996 yildagi kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1973-1996 yillardagi loyqa-cho'kindilar hajmi 17,80 mln.m<sup>3</sup> ni, 2003 yildagi kuzatuvlarga ko'ra loyqa-cho'kindilar hajmi 19,92 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Jizzax suv ombori ekspluatatsiyasi davrida loyqa-cho'kindilar miqdorini aniqlash bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar natijalari 5.8-jadvalda keltirilgan.

5.8-jadval.

Jizzax suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdori

	Kuzatuvlar asosida olingan loyqa-cho'kindilar, mln.m <sup>3</sup>	O'rtacha bir yillik, mln.m <sup>3</sup>
1979	8,0	0,727
1996	17,80	0,635
2003	19,92	0,569

Oxirgi yillardagi kuzatuv ma'lumotlari natijasiga ko'ra Jizzax suv omboridagi loyqa-cho'kindilarning o'rtacha yillik miqdori loyihaviy bashorat miqdoriga nisbatan oshganligini ko'rsatmoqda.

Olib borilgan kuzatuv va fond ma'lumotlariga ko'ra suv omborlaridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining quyidagi ko'rsatkichlarini keltirish mumkin.

- Hisorak suv omborida loyqa bosgan sath suv chiqaruvchi inshootning kirish qismidan 3,0 m baland. Shuning uchun YUBS past bo'lganda suv chiqaruvchi tunnelga loyqa va yirik cho'kindilarning kirib, uni ishdan chiqarishi va to'g'onga xavf tug'dirishi mumkin.
- Toshkent suv omborida loyqa-cho'kindilar miqdori loyihadagiga nisbatan 2 marotaba ortiqligi kuzatilgan.
- Jizzax suv omborida loyqa-cho'kindilar miqdori loyihadagiga nisbatan 8 marotaba ortiqligi kuzatilgan.
- Quyimozor suv omborida olib borilgan tadqiqot va kuzatuv ma'lumotlarga asosan suv omborida loyqa-cho'kindilar miqdori loyihadagiga nisbatan 2,9 marotaba ortiqroq to'planganligi kuzatilgan, bunga sabab shamol to'liqlari ta'sirida qirg'oqlarning shakllanishi jadal holatda bo'lgan.
- Chimqo'rg'on suv omborida loyqa-cho'kindilarning cho'kish miqdori loyihadagiga nisbatan 3 marotaba ortiqligi kuzatilgan.
- Pachkamar suv omborida o'tkazilgan tadqiqotlar va olib borilgan o'lchov natijalari xulosalariga ko'ra suv omborida loyqaning cho'kishi loyihadagiga nisbatan 3,7 marotaba ortiqligi aniqlangan.
- Janubiy Surxon suv omborida 1975, 1985 va 2002 yillardagi o'lchovlarda aniqlanishicha loyqa cho'kishi loyihadagiga nisbatan 1,3 marotaba ortiqligi kuzatilgan.
- Oqdaryo, Qo'rg'ontepa, Qalqama suv omborlarida qirg'oqlarning buzilishi jadallashganligi sababli suv omborida to'liq uzunligini hisoblash talab etiladi.

- Kattaqo'rg'on suv omborining loyihaviy bashorat bo'yicha loyqa-cho'kindilar miqdori yiliga o'rtacha 0,7 mln.m<sup>3</sup> ekanligi ta'kidlangan. Olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha esa bu holat faqat 1975–1986 yillardagi kuzatuvlarga mos keladi. Suv omborida olib borilgan oxirgi yillardagi kuzatuv ma'lumotlari esa suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdorining oshganligini ko'rsatmoqda, ya'ni suv omborida 202,5 mln.m<sup>3</sup> loyqa-cho'kindilar cho'kkan bo'lib bu yiliga o'rtacha 3,31 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etadi, bu esa loyihadagiga nisbatan 4,7 marta ortiqqligini ko'rsatmoqda.

- Dehqonobod suv omborining 2010 yildagi kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasi davrida loyqa-cho'kindilar miqdori yiliga o'rtacha 400–410 ming.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Ushbu tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Dehqonobod suv omborida loyqa – cho'kindilar miqdori loyihaviy bashoratdagiga nisbatan oxirgi yillarda jadallashgan. Suv omborida loyqa-cho'kindilarning ortishiga qirg'oqlarning shakllanishidagi holatlar ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Asosan loyqa-cho'kindilar sel-toshqin suvlaridan kelishi kuzatilgan.

- Qorabog' suv omborida so'ngi marta o'tkazilgan o'lchov-kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, suv omboridagi loyqa-cho'kindilar miqdori yiliga o'rtacha 73 ming.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Loyqalanishning asosiy sabablari loyqa-oqiziqqlarning quyilishi natijasida va qirg'oqlarning shakllanishidan hosil bo'lgan.

- Oqdaryo suv omborini ekspluatatsiya qilish davrida suv omborining loyqalangan hajmini aniqlash bo'yicha olib borilgan kuzatuvlarga ko'ra, suv ombori ekspluatatsiyasini 1983–1997 yillardagi loyqa-cho'kindilar miqdori 11,80 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etgan bo'lsa, so'ngi marta olib borilgan kuzatuvlarga asosan esa suv omborining loyqa-cho'kindilar hajmi 19,33 mln.m<sup>3</sup> ni tashkil etganligi aniqlangan. Oqdaryo suv omborini loyqa-cho'kindilarga to'lishining asosiy sabablaridan biri suv ombori qirg'oqlarida o'pirilishlar, buzilishlar va ko'chkilar sabab bo'lgan. Chunki o'lchov ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, suv omborining to'liq suv sathidagi yuza maydoni loyihadagi maydondan 1,27 km<sup>2</sup> ga kengaygan.

Havzaning loyqa-cho'kindilarga to'lish tezligi loyihada ko'rsatilganidan yuqori bo'lishiga asosiy sabablardan, loyihada ham, suv omborlaridan foydalanish jarayonida ham, loyqa-cho'kindilarga qarshi chora-tadbirlar ko'zda tutilmaganligida deb hisoblash mumkin.

u

v

S

### **omborlarini loyqa bosishi tasirlari, kosasida shakllanishi.**

u

v daryo quyilayotgan hududda yirik o'lchamli oqiziqqlarning katta hajmda intensiv cho'kishi va mayda zarrachalarning butun suv ombori akvatoriyasi bo'ylab tarqalib, suv ombori kosasining omborlarida oqiziq zarrachalarning turlicha cho'kishi jarayonini umumlashtirganimizda quyidagi relefini shakllantirishi.

Juda mayda zarrachalarning bir qismi pastki byefga tashlanayotgan oqim tarkibida suv omboridan o'tib, daryo o'zanining shakllanishida ishtirok etadi.

S

u

v

omborlarida oqiziq zarrachalarning turlicha cho'kishi jarayonini umumlashtirganimizda quyidagi relefini shakllantirishi. Mayda zarrachalarning butun suv ombori akvatoriyasi bo'ylab tarqalib, suv ombori kosasining omborlarida oqiziq zarrachalarning turlicha cho'kishi jarayonini umumlashtirganimizda quyidagi relefini shakllantirishi. Juda mayda zarrachalarning bir qismi pastki byefga tashlanayotgan oqim tarkibida suv omboridan o'tib, daryo o'zanining shakllanishida ishtirok etadi.

Daryo o'zanida joylashgan o'zan suv omborlarida suv oqimi harakatining kuchliligi sababli oqiziqqlarning faqat muayyan qismi ushlanib qoladi. Shunga qaramay, suv omborlari sig'imi

cho'kindilar bilan to'lib boradi. Agar daryo oqimining loyqaligi yuqori bo'lsa, og'ir qorishmali tub oqim hosil bo'ladi va to'g'on tomon harakatlanadi.

O'zandan tashqarida joylashgan quyilma suv omborlarida oqim bilan kirib kelgan loyqalarning chiqib ketishi miqdori juda kichik bo'lganligi sababli ularni cho'kindilar bilan qoplanishi jarayoni tezroq kechadi.

S

u

v

omborining  
o'pirilishi  
bo'lgan su



ruvilishi va  
tini yashab  
(5.9- rasm).

rasm. Suv omborini loyqa bosishi jarayoni  
**irg'oqlarni shakllanishi.**

S

u

v

omborini hosil qilishda suv ostida qolayotgan daryo vodiysi va ayniqsa, qirg'oq zonasi tubdan qayta shakllanadi. Ba'zida balandligi 3 m ga yetadigan to'lqinlar katta tezlikda daryo vodiysi qiyaliklarini intensiv yuva boshlaydi. Bu qirg'oqlar awal suv bilan munosabatga kirishmagan bo'lib, ularning profili suvsiz sharoitda shakllangan bo'ladi. Daryo vodiysi qiyaliklari sharoitning birdan o'zgarishi ularning bir tomonlama qayta shakllanishiga olib keladi. Suv omborlarining o'pirilgan jarliklar chuqurligi 40-60 metrlarga yetadi. Turg'un qirg'oq konturining hosil bo'lgunicha



## rasm. Suv ombori qirg'oqlarining yuvilishi holatlari

Q  
i  
r  
g Q

iq sohasida to'lqinlar ta'sirida yemrilish, chuqur tub sohasida esa oqizqlarning cho'kishi va loyqa bosishi jarayoni yuz beradi. Qirg'oq sohasi uch qismdan iborat bo'lib qirg'oq, qirg'oq bo'yi va


g Q

iq - suv omborini o'rab turgan turli nishablikdagi quruqlik qism. Qirg'oq asosi to'lqin yuqori chegarasiga to'g'ri keladi, vaqt davomida yemirilib boradi va quruqlik tomon suriladi. Qirg'oq tog' qiyaliklarining qirg'oq oldi hududi bilan tutashgan "qosh" chizig'i bilan tugaydi.

oq bo'yi hududida nisbatan tekis topda, qisman quruq bo'lib, kuchli to'lqin harakatlanganda ho'l zonani hosil qiladi. Ba'zida to'lqin ostida qoladigan qismi ho'llanuvchi, doimo to'lqin ostida bo'luvchi ombori tomon keskin nishablik bilan tushib boradi. Bu sayoz joylar yer qatlamlarining yuvilishi zonalariga bo'linishi 1.3-rasmda keltirilgan.

u  
v

ombori hududida sodir bo'ladigan kimyoviy va biologik jarayonlar, to'lqinlanish, daryo oqimi tarkibidagi oqizqlar asta-sekinlik bilan qirg'oqlar tabiiy reliefini va planda ko'rinishini o'zgartiradi. Vaqt o'tishi bilan suv ombori loyqalanish natijasida sayozlashadi va qirg'oq hududlari o'simliklar bilan qoplanadi.




### 5.11 – rasm. Suv ombori qirg'oq zonasi elementlari

Katta daryolar yo'lini to'sib, suv omborini hosil qilish sharoitida, qirg'oq sohasining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi yana bir omil shamol to'lqinlari bo'ladi. Yirik suv omborlaridagi tranzit suv sarfi hosil qilgan oqim tezligi qirg'oqlar yuvilishiga katta ta'sir ko'rsatmaydi. Ammo shamol ta'sirida hosil bo'lgan to'lqinlanish bilan bog'liq suv harakati shunday oqim tezligini paydo qiladiki, natijada qirg'oq va unga yondashgan suv osti zonasida kuchli

Shamol ta'siridagi suvning to'lqinlanishi va harakati ostida oqimlar qirg'oqlarni yuvish kuchiga teng tezlik hosil qiladi va katta grunt massivlarini ko'chirib oqizadi. Bu massivlar qiyalik bo'ylab pastga suriladi va qirg'oq bo'yi platformasini hosil qiladi. Yuvilish jarayoni qirg'oqning mustahkam qirg'oqlar shakllanguncha davom etadi. Bunda, asosan, yirik grunt zarrachalari katta rol o'ynaydi.

Yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra, birlamchi qirg'oq *abc* yuvilib o'pirilib boradi. Yuvilgan

jinslar oqim bo'ylab pastga siljiydi va qirg'oq suv osti massivini hosil qiladi. Qirg'oqlar yuvilishidan paydo bo'lgan massiv yirik zarrachalar bilan qoplangan himoya qobig'ini hosil qilguncha o'sishda davom etadi. To'lqinlar qobiqqa urilib, o'z energiyasining katta qismini yo'qota boshlaydi va qirg'oq yuvilishi to'xtaydi.




### 5.12-rasm. Suv ombori qirg'og'i sayoz zonasining shakllanish sxemasi:

*abc*- birlamchi qirg'oq,  $H$ -qum-sayozlik tashqi chegarasi chuqurligi,  $m_b$  - qirg'oq yuvilgan massasining suv osti qiyaligi,  $m^*$ - yuvilgan suv osti qirg'og'i qiyaligi, *deb* - cho'kindilar prizmasi; *brq* - yuvilish prizmasi.

Suv ombori sig'imi uning tubiga daryo va irmoqlar olib kelgan oqiziq zarrachalarining va shamol olib kelgan chang-to'zon (eol) zarralarining cho'kishi, hamda qirg'oqlarning yuvilishi hisobiga loyqa bilan to'lib, asta-sekinlik bilan o'z sig'imini o'zgartira boshlaydi.


Respublikamizdagi mavjud suv omborlarning havzasi yildan-yilga loyqa-cho'kindilarga to'lib, ularni loyqa bosgan hajmi tobora ortib foydali hajmi esa kamayib bormoqda. Natijada suv omborlaridan rejadagidek foydalanish, ya'ni kerakli suvni to'plash va uni etkazib berishda noqo'layliklarni, suvga bo'lgan talabni yumshatishda bir muncha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Suv omborlarini foydali hajmini kamayishiga, ya'ni loyqa-cho'kindilar orqali to'lib borishiga asosiy sabablardan biri suv ombori qirg'oqlarining o'pirilishi, emirilishi va ularni siljishi kabi holatlar kiradi. Bu holatlar asosan suv omborini ekspluatatsiya qilishda ba'zi bir kamchiliklarga yo'l qo'yish orqali ham sodir bo'lmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra suv omborlari qirg'oqlarining shakllanishi quyidagi holatlarda sodir bo'ladi:

- suv ombori sathining keskin ko'tarilishi;
- suv ombori sathining keskin pasayishi;
- o'pirilgan hajm ta'siri natijasida grunt suvlar sathining ko'tarilishi;
- suv bilan ko'milgan nishabliklarda kichik o'pirilishlar.



Suv ombori sathining keskin ko'tarilishi natijasidagi qirg'oqlar siljishi asosan suv omborlariga keladigan sel-toshqinlar tufayli suv ombori sathini keskin ko'tarilib ketishi va ba'zan suv omboridagi suvni tejash maqsadida yuqoridan kelayotgan katta miqdordagi suvlarni suv omboridan o'tkazib yubormasdan uni suv omborida tutib qolmoqchi bo'lib qilingan xarakatlar sabab bo'ladi. Natijada suv ombori qirg'oq gruntlarida o'prilishlar, suv bosimi ta'siri natijasida qirg'oqlar yuza qismlarining yuvilishlari, yumshoq gruntlarning suv bosimi natijasida emirilishi va cho'kishi kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Buning oqibatida sodir bo'lgan barcha holatlardagi tuproq va boshqa grunt jismlar suv ombori havzasiga kelib o'rnatiladi.

Suv ombori sathini keskin pasayishi yuqorida keltirilgan suv ombori sathini keskin ko'tarilishining aksi bo'lib, unda suv omboridagi suvni keskin ravishda tushirib yuborish natijasida sodir bo'ladi.



5.14-

Suv ombori sathining keskin pasaytirish, tushirib yuborish natijasida qirg'oq grunt qatlamlari orasida suv bo'g'ining qoldiq bosimi hosil bo'ladi va uning ta'siri natijasida qirg'oq gruntlarining emirilishi, ularni joylari o'zgarishi tufayli qirg'oqlarda ko'chkilar, o'prilishlar hosil bo'ladi.

Suv ombori qirg'oqlarini o'pirilgan hajmi ta'sirida suv ombori atrofida va qirg'oqlar grunt suvlar sathining ko'tarilishi kuzatiladi. Bunga asosan suv omborining mavjud havzasi tubiga o'pirilgan gruntlar kelib tushishi natijasida suv tubi sathining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlar suv ombori havzasi atrofidagi grunt suvlarining ko'tarilishi bilan birgalikda suv ombori hajmini kamayishiga va suv ombori havzasida loyqa-cho'kindilar miqdorining ortishiga olib keladi.

Hozirda ekspluatatsiya qilinayotgan aksariyat suv omborlarning muammolaridan biri bu suv omborini suv bilan ko'milgan qirg'oq nishabliklarida kichik o'pirilishlar, emirilishlar, cho'kishlar va yuvilishlar ta'siri natijasida hosil bo'ladigan ko'milish kabi holatlar. Suv omborini suv bilan to'ldirganda uning suv ostida bo'lgan qirg'oqlari sekin emirilib, o'pirilib yoki yuvilib suv omborining tubiga yig'iladi, oqibatda ushbu holat suv omborining mavjud hajmini kamayishiga olib kelmoqda. Bunday holatlar asosan suv omborining qirg'oq gruntlari yumshoq bo'lgan joylarda jadallashganini kuzatish mumkin. Suv omborlari qirg'oqlarini shakllanishi suv omborining ekspluatatsiyasiga salbiy ta'sir o'tkazibgina qolmay bu holat suv omborini atrof muhitiga, qirg'oqlarini kengayishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi, natijada suv omborini suv bilan qoplangan maydoni kengayyadi, buning oqibatida suv omboridagi fil'tratsiya va suv ombori yuzasidan bo'ladigan bug'lanish ortishiga olib keladi. Bunday omillar ta'siri oqibatida suv omboridagi suvdan samarali foydalanish koeffitsienti kamayishiga olib keladi. Oqibatda sodir bo'lgan holatlar natijasida suv ombori havzasining loyqa-chukindilar bilan to'lishiga va suv ombori hajmining kamayishiga olib keladi.

Suv sathi ko‘tarishi tufayli qirg‘oqlarning ko‘chishi va plastlardagi bosimni o‘zgarishi hamda qirg‘oq qatlamlarini suvga to‘yinishi va u erdagi bosimni kamayishi natijasida emirilish holatlaridagi o‘zgarishlarni matematik statistika hisoblari quyida keltirilgan.


Qirg‘oq ko‘chishi tufayli ko‘chuvchi massa hosil bo‘lib, bu massaning suv ombori suvining ko‘tarilishiga ta’siri namoyon bo‘ladi. Ko‘chuvchi massaning hajmiy og‘irligi quyidagicha ifodalanadi:

$$m = \rho W \quad (5.52)$$

Ko‘chki massaning hajmi, ko‘chish chegarasi koordinatalari orqali yozilib, quyidagi qaytali integral orqali beriladi:

$$W = \int_a^b dx \int_c^d [Y_1(x, y) - Y_2(x, y)] dy \quad (5.53)$$

Ko‘chki massasini chegaralovchi sirtlarning koordinatalarini bilgan holda, chegaralovchi sirtning yuqori va pastdan, o‘ngdan va chapdan o‘tuvchi egri chiziqlari topiladi. Bu egri chiziqlar Nyuton yoki Lagranj va boshqa taqribiy formulalarni qo‘llash orqali hisobladi (3-rasm).



5.14-rasm. Suv ombori sathining keskin ko‘tarilishi natijasidagi qirg‘oqlar siljishini matematik ifodasi.

Lagranj interpolyacion formulasini esa ko‘chki massasini chegaralovchi egri chiziqlar  $C_1B_1A$  va  $CBA$  - absiçissalarini 3-rasmga asosan quyidagicha tanlab olib:

$$x_0 = 1,2, x_1 = 3, x_2 = 6, x_3 = 9, x_4 = 12, x_5 = 15.$$

Ularga mos ordinatalarni 3- rasmidagi ordinatalardan olamiz:

$$y_0 = 0, y_1 = 1,5, y_2 = 2,8, y_3 = 4, y_4 = 5,5, y_5 = 7.$$

Keltirilgan koordinatalarni Lagranjning interpolyacion formulasiga qo‘yamiz va natijada  $C_1B_1A$  chiziqning tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$Y_1(x) \approx 0,028x^4 + 0,22x^3 - 0,59x^2 + 2,38x - 2,90. \quad (5.54)$$

Xuddi shu usul bilan ko‘chki kesimini pastki tomondan chegaralovchi  $CBA$  egri chiziqning tenglamasini topamiz. Buning uchun mos koordinatalarni keltiramiz:

$$x_0 = 6, x_1 = 9, x_2 = 12, x_3 = 15.$$

$$y_0 = 0, y_1 = 0,8, y_2 = 2,5, y_3 = 7,$$

Keltirilgan koordinatalarni Lagranjning interpolyaion formulasiga qo'yamiz, natijada  $CBA$  egri chiziqning quyidagi tenglamasiga ega bo'lamiz:

$$Y_2(x) = 0,004x^3 + 0,09x^2 + 1,17x + 3,78. \quad (5.55)$$

Ko'chkining harakatdagi  $ODB_1C_1$  kesimini 3-rasmdagi koordinatalardan va Lagranj formulasi orqali topilgan  $C_1B_1A$  va  $CBA$  egri chiziqlarning tenglamasidan foydalanib hisoblaymiz:

$$\omega_1 = \int_0^{1,2} dx \int_0^2 dy + \int_{1,2}^{4,2} dx \int_0^{Y_1(x)} dy = 2,4 + \int_{1,2}^{4,2} Y_1(x) dx = 2,4 + \int_{1,2}^{4,2} (0,028x^4 + 0,22x^3 - 0,59x^2 + 2,38x - 2,9) dx$$

$$\omega_1 = 2,4 + 20,44 = 22,84 \text{ kv. } \delta \quad (5.56)$$

Ko'chkining harakatdagi  $C_1CBB_1$  kesimini 3-rasmdagi koordinatalardan va Lagranj formulasi orqali topilgan  $C_1B_1A$  va  $CBA$  egri chiziqlardan foydalanib yozamiz:

$$\omega_2 = \int_{1,2}^{4,2} dx \int_0^{Y_1(x)} dy + \int_{4,2}^{11,5} dx \int_{Y_2(x)}^{y=2} dy = \int_{1,2}^{4,2} Y_1(x) dx + \int_{4,2}^{11,5} (2 - Y_2(x)) dx = 55,11 \text{ kv. } \delta$$

Xarakatdagi  $B_1BA$  kesim yuzasini quyidagi integral orqali topamiz .

$$\omega_3 = \int_{4,2}^{11,5} dx \int_2^{Y_1(x)} dy + \int_{11,5}^{15} dx \int_{Y_2(x)}^{Y_1(x)} dy = 71,5 \text{ kv. } \delta$$

Xarakatdagi  $DD_1EB_1$  kesim yuzasini quyidagi integral orqali topamiz.

$$\omega_4 = \int_0^{4,2} dx \int_2^5 dy + \int_{4,2}^{11} dx \int_{Y_1(x)}^5 dy = 117,5 \text{ kv. } \delta.$$

Barcha xarakat kesimi yuzasidan o'tayotgan ko'chki yoki suyuqlik miqdorini o'zgarishini tutash muhit tenglamasidan topamiz:

$$Q_i = \omega_i \mathcal{G}_i \quad \text{yoki} \quad Q_i = \frac{W_i}{t}. \quad i = 1, 2, 3, 4 \quad (5.57)$$

Xozirda eksplutatsiya qilinayotgan aksariyat suv omborlarning muammolaridan biri bo'lgan suv omborini suv bilan ko'milgan qirg'oq nishabliklarida kichik o'pirilishlar, emirilishlar, cho'kishlar, yuvilishlar va qirg'oqlarni siljishini ham huddi shunday hisoblash usulidan foydalanib aniqlash mumkin.

Suv omborini to'ldirish va bo'shatishda har bir suv ombori uchun ishlab chiqilgan dispetcherlik grafiklariga amal qilgan holda suv sathining ko'tarilish va tushish tezligi me'yoriy qiymatlardan oshib ketmasligi yuqorida keltirilgan holatlarni oldini olish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

#### 5.4. Suv omborlari sedimentatsiya balansi tenglamasi

Suv omborlarining sedimentatsiya (cho'kmalar hosil bo'lishi) balansini o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Suv omborlarining sedimentatsiya balansi tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$W = W_h + I_{L..} + W_{.} + W_{-} - W_{h..} + Z_1 W \quad (5.58)$$

chokma kinm qirgoq eol chiqim

bu yerda:



Wchoiana ~ suv omborida cho'kib qolgan loyqa oqiziqalar hajmi;

Wfa.rim - suv omboriga daryolar, soylar keltirib quyadigan loyqa oqiziqalar hajmi;

- suv omboriga qirg'oqlarning yemirilishi, qulab tushishi kabi eroziya jarayonlari natijasida qo'shiladigan tog' jinslari hajmi;

Weol - suv omboriga shamol keltirgan chang-to'zonlardan hosil bo'ladigan cho'kmalar;

- suv omboridan chiqib ketadigan loyqa oqiziqalar hajmi;

AW- hisob davrida suv omboridagi cho'kmalar hajmining o'zgarishini ifodalaydi.

Yuqoridagi kattaliklarni og'irlik miqdorida (tonna) yoki hajm ko'rinishida (mln. m<sup>3</sup>) ifodalash mumkin. Ma'lumki, suv omborlarining sig'imi hajm birliklarida (m<sup>3</sup>, km<sup>3</sup>) ifodalanadi. Shu tufayli suv omborida cho'kkan loyqa oqiziqalar miqdorini hajm birligida hisoblashda quyidagi ifodadan foydalaniladi:

bu yerda:

V - suv omborida cho'kib qolgan loyqa oqiziqalar hajmi, mln. m<sup>3</sup>; W<sub>4yKMa</sub> - 1oUCha oqiziqalar og'irligi, t;

yR - loyqa oqiziqalarning solishtirma og'irligi, t/m<sup>3</sup>.



5.15-rasm. Suv omboridagi cho'kindilar

Oqiziqalarning solishtirma og'irligining qiymati turli suv omborlarida turlicha bo'ladi va bu o'zgarish suv omborlari havzasidagi tog' jinslarining xususiyatlari bilan aniqlanadi. Hatto birgina suv omborining turli qismlarida uning qiymatlari turlicha bo'lishi mumkin.

## VI –bob. SUV OMBORIDAGI SUV ISROFLARI

o  
o  
a  
o  
o  
a  
n  
a  
a  
o  
a  
a  
e  
a  
a  
o

### 6.1. Suv yuzasidan bo‘layotgan bug‘lanish.

Suv omborlaridan samarali foydalanish uchun suv resurslarining keskin tanqisligi sharoitida qishloq xo‘jaligida daryo oqimi xarakterlarining hozirgi tarkibini bilish zarur. Yillik antropogen oqimlar ta‘sirida yo‘qotishlari bilan birgalikda bu suv omborlari yuzasidan suvning bug‘lanishidir. Sug‘oriladigan maydonlarning o‘ssishi va ularning suv bilan ta‘minlanishining oshishi suv resurslaridan foydalanishni intensivlashtirish bilan birga p‘isib boradi, bunday jarayonlarda suvdan samarali foydalanish uchun suv havzalaridagi oqimni tartibga solmasdan bajarish mumkin emas. Suv omborlarining tobora ko‘payib borayotgan yuza maydonidan bug‘lanish tufayli suv yo‘qotishlarining sezilarli darajada oshishiga olib keldi, bu esa ushbu masalani o‘rganish va suv omborlaridan qaytarilmaydigan suv yo‘qotishlarining qiymatini aniqlash zarurligiga olib keldi.

Birinchi navbatda suv omborlarda bo‘g‘lanish orqali suv yo‘qotilishiga obektning qanday zonada joylashgani muhim ahamiyatga ega. Misol uchun suv ombori tog‘ va tog‘ oldi hamda tekislikda joylashgan bo‘lsa, bunday hollarda suv yo‘qotilishi turlicha bo‘ladi bunga sabab qilib havo harorati, shamol tezligi, shamol yo‘nalishi, nisbiy namlik hamda suv omboridagi suvning aylanishi katta ahamiyatga ega, mavzuga doir nazariy va amaliy tadqiqotlar quyidagi olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan: Anapolskaya L.E., Beleskov B.I., Gapparov F.A., Kojevnikova M.S., O‘sadchaya I.V., Braslavskiy A.P., Vikulina Z.A., Nurgaliev S.N., Chistyayeva S.P., Shergina K.B., Bratsert U.X., Bruks K., Karuzers N., Burman E.A., Pereleta G.I., Gvaxariya V.K., Golubev V.S., Vuglinskiy V.S., Kokoreva K.M., Uryvaev A.P., Gostunskiy A., Gorelkin N.E., Griбанova N.N., Davydov V.K., Zaykov B.D., Ibragimov S.S., Kaganer M.S., Kojevnikov V.P., Konstantinov A.R., Kuznetsov V.I., Laptev V.I., Molchanov V.P., Milkis B.E., Mitropolskiy A.K., Molchanov L.A., Nikitin A.M., Azii L., Orlovskiy N.S., Reyzvix V.N., Popova A.B., Romanova V.V., Romanov V.V., Rymsha V.A., Dovchenko R.V., Sadikov A.X., Safarova A.M., Timofeev M.P., Timofeev M.P., Horton R. E., Millar F.G., Penman H.L., Penman H.L., Thornthwaite C.W., Holzman B., Kojevnikova M.S., Nikitin A.M., Edelshteyn K.K., va boshqalar.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning taxlili hozirgi kunda suv omborining foydali hajmini bug‘lanish orqali kamayishini aniqlash ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish kabi masalalar yetarli darajada o‘rganilmagan.

***Suv omborlari suv yuzasidagi bug‘lanishni aniqlash usullarining tahlili.***

Ko‘p yillar mobaynida insoniyat suvning bug‘lanishini kuzatgan. 1802 yilda Dalton asarining nashr etilishi bug‘lanish nazariyasining rivojlanishiga katta turtki berdi. U olingan ma‘lumotlarni quyidagicha izohladi: "... bug‘lanish kuchi suv kuchiga teng bo‘lishi kerak, shunga mos ravishda atmosferada mavjud bo‘lgan kuch bilan kamayadi. "Bug‘lanish kuchi bir xil bo‘lsa, har xil bug‘lanish intensivligi faqat shamol kuchi ta‘sirida doimo o‘zgarib turadi. "Ushbu izohlardan kelib chiqadiki, Daltonning zamonaviy yozuvdagi natijasini quyidagicha yozilish mumkin: [10]

$$E = f_d(\bar{u})(\ell_s^* - \ell_a) \quad (6.1)$$

bu yerda

$E$ -bug'lanishning intensivligi;

$\ell^*$ -suv yuzasi haroratida to'yingan suv bug'ining bosimi;

$\ell_a$ - havodagi bug 'bosimi;

$f_d(\bar{u})$ - o'rtacha shamol tezligi.

Muammoni Weilenman 1877-yillarda yanada chuquroq o'rgangan.

U suv yuzasi bilan atmosfera o'rtasida havodagi bo'ladian jarayonlarni o'rganib, u bug'lanish intensivligini atmosferaning o'rtacha shamol tezligining chiziqli funksiyasini ishlab chiqdi. Biroq, u bug'lanish intensivligini to'yingan havo tanqisligiga mutanosib deb hisoblash kerakligini ta'kidladi. Eksperimental ma'lumotlar yordamida u quyidagi tenglamaning bajarilishini tekshirdi:

$$E=(A_w+B_w\bar{U})(\ell^*_a-\ell_a) \quad (6.2)$$

bu yerda

$A_w$  va  $B_w$  – doimiylar

$\ell^*_a$  - havo haroratidagi to'yingan bug' bosimi.

Dalton qonunini (6.1) hisobga olgan holda, (6.2) da to'yinganlik etishmovchiligidan foydalanish suv yuzasi va havo harorati bir xil degan bayonotga teng deb aytishimiz mumkin.

Vaylenman qaysidir ma'noda bu cheklovni tushundi.

Va nihoyat, Stelling muammoni aniqroq hal qila oldi. Vaylenman shamol funksiyasi tenglamasi va Dalton tenglamasini birlashtirib, u quyidagi ifodani oldi:

$$E=(A_s+B_s\bar{U})(\ell^*_a-\ell_a) \quad (6.3)$$

Bu yerda

$A_s$  va  $B_s$ -empirik doimiy.

Olingan bug'lanishni o'lchash ma'lumotlaridan foydalanish sirtidan 1 m balandlikda o'rnatilgan ISP a Ritel Wilde yordamida olingan bug'lanish o'lchov ma'lumotlarini ishlatib, u  $A_s = 0,0702$  va  $B_s = 0,00319$  ni oldi. 2 soat ichida millimetrda ifodalangan,  $\ell$  -simob ustuni, mm va  $\bar{U}$  – shamo tezligi km/soat.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari bug'lanish nazariyasining yanada rivojlanishiga hissa qo'shdi.

Hozirgi vaqtda suv omborlaridan bug'lanishni amaliy baholash uchun turli usullar taklif qilingan: suv balansi tenglamalari, issiqlik balansi usullari va empirik formulalar.

Suv omboridan bug'lanishning integral qiymatini darhol olishning yagona usuli (issiqlik yoki namlik almashinuvining omillarini hisobga olmasdan) suv balansi tenglamasidan bug'lanishni hisoblash usulidir.

Ushbu usul bug'lanishning mutlaq qiymatlari suv balansining boshqa tarkibiy qismlari bilan taqqoslanadigan holatlarda suv omborlaridan o'rtacha uzoq muddatli yillik va oylik bug'lanishni hisoblash uchun ishlatilishi mumkin. Muayyan yillar va ayniqsa oylar uchun hisoblashda ushbu usuldan foydalanish maqsadga muvofiq emas, chunki mazkur usulni qo'llashning asosiy shartlari har doinham bajarib bulmaydi. Mazkur jarayonga ta'sir qiladigan bir qancha omillar mavjud (yer osti suvlari almashinuvi, kondensatsiya, suv omboridagi suv zaxiralarining o'zgarishi. iqtisodiy faoliyat).

Bug'lanishni aniqlashning eng aniq va samarali usuli bu issiqlik muvozanati usuli bo'lib, u asosan bug'lanadigan yuzaga kiradigan enyergiyaning saqlanish qonunining ifodasidir. Suv omborlari yuzasidan bo'ladian bug'lanishni hisoblash quyidagi tenglama buyicha amalga

oshiriladi : [31,14].

$$E=0,615 \cdot 10^{-2} (R - \Delta S_1 + \Delta S_2 + \Delta S_r) / (1,55 + \Delta t / \Delta \ell) \quad (6.4)$$

bu yerda

$R$ -radiatsiya balansi, J / sm<sup>2</sup>;

$\Delta S_1$ - hisoblangan vaqt oralig'ida suv massasi zahirasi haroratining o'zgarishi, J/ sm<sup>2</sup>;

$\Delta S_2$  – Suv omboriga suv tushishi bilan issiqlik kiritish va undan suv chiqishi bilan issiqlikni chiqarib tashlash o'rtasidagi farqlar, J/ sm<sup>2</sup>;

$\Delta S_r$ -suv omborining pastki qismi bilan bo'lgan issiqlik almashinuvi, J / sm<sup>2</sup>;

$\Delta t$  -suv va havo haroratidagi farq, °C;

$\Delta \ell = (\ell_0 - \ell_2)$  - suv yuzasida va undan 2 m balandlikda suv bug'ining qisman bosimidagi farq,

GPa.

(1.4) tenglama bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun standart tarmoq gidrometeorologik ma'lumotlari va suv yuzasining radiatsion balansi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish kifoya. A. P. Braslavskiyning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki [5] issiqlik davri oylari uchun yerning radiatsion balansi va unga tutash suv yuzasi o'rtasidagi farq 5% dan oshmaydi, ya'ni qarama-qarshilik (1.4).

Bug'lanishni issiqlik balansi usuli bilan aniqlash bizga ushbu usul hamma joyda standart bo'lib xizmat qila olmaydi, deb ta'kidlashga asos beradi; u juda cheklangan meteorologik sharoitlarda qo'llaniladi; bu usul foydalanishning sezilarli mehnat intensivligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun tarmoqni kuzatish ma'lumotlari yordamida amaliy hisob-kitoblarni ishlab chiqarishda keng foydalanish uchun tavsiya etilmaydi. Biroq ko'pgina tajriba ishlarida ko'rsatilganidek, N.N.Gribanov [24], E.A.Burman va G.I.Prelet [12,13], V.V.Romanov. [42] va boshq., bug'lanishni issiqlik balansi usuli bilan aniqlash tadqiqot maqsadida juda mos keladi.

Suv yuzasidan bug'lanishni hisoblash uchun mamlakatimizda ham, chet ellarda ham empirik formulalar keng qo'llaniladi. Aksariyat hollarda ular juda sodda va eng muhimi, standart gidrometeorologik ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan.

Tadqiqotlarning maqsadi sohadagi eng keng tarqalgan shaklning empirik formulalarini ishlab chiqish edi.

$$E = (\ell_0 - \ell_{200}) (A + VW_{200}) \quad (6.5)$$

Bu ishlanmalar natijasida V.K.Davydov[25], B.D.Zaikov[26], A.P. Braslavskiy va Z.A.Vikulina [6], M.S.Kaganyer [28], N.S.Orlovskiy [40], V.N.Reizvix va A.B.Popova [41], V.K.Gvaxariya [19], A.M.Safarov [47], V.I.Laptev va V.P.Molchanov [33] va boshqa bir qator mualliflar.

Chet davlatlarda Xorton R. E. [ 56] , Millyer F. formulalaridan foydalaniladi. [ 57], Penman H. L. [58,59], Torntvayt S. [60] va boshqalar.

B. D. Zaikov formulasi [26]

$$E = 0,2n (\ell_0 - \ell_{200}) (1 + 0,85W_{100}) \quad (6.6)$$

bu yerda  $E$ -mm da bir oy davomida bug'lanish qatlami;

$n$ -oydagi kunlar soni;

$\ell_0$ -to'yingan suv bug'ining o'rtacha oylik elastikligi, suvning sirt harorati, mm;

$\ell_{200}$ - suv yuzasidan 200 sm balandlikda havodagi suv bug'ining elastikligi, mm da.

$W_{100}$  - o'rtacha oylik shamol tezligi 100 sm balandlikda, m/sek da;

Agar  $mb_0$  va  $200_{200}$  MB da ifodalangan bo'lsa, qavs oldida multiplikator 0,15 ga teng va shamol tezligi 200 sm balandlikda olinadi, shamol tezligining koeffitsienti 0,72 ga teng. Keyin

formula (1.6) aylanadi:

$$E=0,15 n (\ell_0-\ell_{200}) (1+0,72W_{200}) \quad (6.7)$$

Formulaga ko'ra (1.7) bug'lanish katta suv omborlari uchun hisoblanadi. Kichik suv havzalaridan bug'lanishni hisoblashda B. D. Zaykov (1.6) formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$E=0,2nC \bar{D}_{200}^{0,78} (1+0,85W_{100}) \quad (6.8)$$

C- yashirin shaklda kichik suv omborining suv yuzasi harorati va havo harorati o'rtasidagi nisbatni ifodalovchi parametrlar;

D- millibarlarda havo namligining etishmasligi.

A. P. Braslovskiy va Z. A. Vikulinaning formulasi:

$$E=0,13n (\ell_0-\ell_{200}) (1+0,72W_{200}) \text{ mm/mes} \quad (6.9)$$

bu yerda E-oylik bug'lanish miqdori mm;

n-oyning kunlar soni;

$\ell_0$ -suv harorati bilan belgilangan maksimal bug'lanish elastikligi, mm;

$\ell_{200}$ -suvning yuqori qismidan 200 sm balandlikda mutlaq havo namligi;

$W_{200}$ -m/sek suv omboridan 200 sm balandlikda shamol tezligi.

1960-yillarning oxirlarida V. I. Kuznesov, V. S. Golubev va T. G. Fedorova suv yuzasidan o'rtacha oylik bug'lanishni hisoblash formulasini taklif qildilar, xolos [54]

$$E=0,14 n (\ell_0-\ell_{200}) (1 + 0,72U_{200}) \quad (6.10)$$

E- bir oy davomida bug'lanish qatlami mm da;

n-hisob-kitob vaqtidagi kunlar soni;

$\ell_0$ - suv havzasidagi suvning sirt haroratidan hisoblangan suv bug'larining maksimal elastikligining o'rtacha qiymati, mm da;

$\ell_{200}$ -suv bug'ining elastikligining o'rtacha qiymati (havoning mutlaq namligi) suv omboridan 200 sm balandlikda, mm da;

$U_{200}$ -suv ombori ustidagi shamol tezligining o'rtacha qiymati 200 sm balandlikda, m/sek.

Ushbu formulani muvozanat tabaqalanishi uchun ishlatish tavsiya etiladi, bu yerda suv va havo harorati qiymatlari o'rtasidagi farq 2°C -4°C ga teng.

Atmosferaning suv ombor ustidan muvozanatsiz tabaqalanishida V.A.Rymsha va R.Dovjenko [45], A.P.Braslavskiy va S.N.Nurgaliev [7] va V.P.Kojevnikov [29] va boshqalar tomonidan hisoblash formulalari taklif etilgan.

Rymsha va Dovchenko tomonidan taklif qilingan formulaning tuzilishi quyidagicha:

$$E=0,104n (\ell_0-\ell_2) (K_{\Delta t}+W_2) \quad (6.11)$$

bu yerda

$K_{\Delta t}$ -suv va havo yuqori harorat farqini bog'liq koeffitsienti.

Braslovskiy va Nurgalievning formulasi quyidagicha:

$$E=0,14(\ell_0-\ell_2)[1+0,8W_2+Y(\Delta t)] \quad (6.12)$$

(6.12) formula oylik vaqt oralig'ida bug'lanishni hisoblash uchun mos emas. Bu, qoida tariqasida, bug'lanish qiymatini, ayniqsa atmosferaning beqaror tabaqalanishi bilan ortiqcha baholaydi.

V.P.Kojevnikovning [29] ishlarida bu tipdagi formulalardagi A va B koeffitsientlar doimiy bo'lib qolmaydi, balki bu formulalar olingan bug'latgichlarning joylashgan joyidagi yer osti yuzasining g'adir-budurligiga qarab o'zgarishi ko'rsatilgan.

O'rta Osiyo hududi uchun mintaqaviy formulalarni ishlab chiqish B.E.Milkis [34], N.S.Orlovskiy [40], V.N.Reizvix va A.B.Popova [41], S.S.Ibragimov [27], N.E.Gorelkin va A.M.Nikitin [23] ishlarida amalga oshirildi.

1968 yilda Orlovskiy mintaqaviy formulani oldi va Turkmanistonning suv yuzasidan

bug'lanish xaritasini tuzdi.

$$E=0,15 n (\ell_0-\ell_{200}) (I+0,69W_{200}) \quad (6.13)$$

Formula O'rta Osiyo tekislik hududining o'nta bug'lanish havzalari matyeriallarida olingan [40].

Markaziy Osiyo suv omborlaridan bug'lanishni baholash uchun tavsiya etilgan Reizvix va Popovaning formulasi 10 m 20 m<sup>2</sup> bug'lanish havzalari uchun matyeriallarga asoslangan, faqat farq bilan bu yerda uzoq vaqt davomida kuzatuvlar va Prjevalsk ob-havo stansiyasidan olingan ma'lumotlar jalb qilingan.

Ularning ishlarida qayd etilganidek, ular tomonidan olingan formulalarida

$$E=0,16 n (\ell_0-\ell_{200}) (I+0,61W_{200}) \quad (6.14)$$

hisoblangan qiymatlarni o'lchanganlar bilan taqqoslashda va Zaikov va GGI formulasiga eng yaqin bo'lgan boshqa formulalar bilan taqqoslaganda eng yaxshi natijalarni beradi [54].

Mavjud hisoblash formulalarining qo'llanilishini tahlil qilish Ibragimovning Bo'zsuv, Ashxobod va Frunze meteorologik stansiyalari matyeriallari ustida olib borgan ishlarida Markaziy Osiyo sharoitida Zaikov va GGI formulalari aniqroq ekanligini ko'rsatdi. Shu ishda Bo'zsuv ob-havo stansiyasidagi (1956-1969) bug'lanish hovuzining matyeriallariga eng kam kvadratlar usuli yordamida bug'lanishning havo namligiga, suv bug'ining elastiklik gradientiga va shamol tezligiga bir qator bog'liqligi olingan [27].

Biroq, ushbu tadqiqotlarning barchasi tekis hududlar uchun bug'lanish kuzatuvlari materiallarida amalga oshirildi, chunki tog'li hududlar uchun balandlik parametrini (6.15) formulaga kiritish Laptev va Molchanov tomonidan amalga oshirildi va shaklning bog'liqligi olindi:

$$E=(0,128+0,022N) (\ell_0-\ell_{200}) (I+0,72W_{200}) \quad (6.15)$$

Biroq, u bug'lanishning balandlik bilan o'zgarishida farqlarga ega bo'lgan turli xil fizik-geografik zonalar matyeriallarida ishlab chiqilgan. Tekshirish san'at matyeriallarida amalga oshiriladi. Prjevalsk, ushbu formula 2000 m balandlikda joylashgan suv omborlaridan hisob-kitoblarning aniqligini oshiradi.

Balandlik zonasining suv omborlari yuzasidan bug'lanishga ta'siri masalalari Nurgalievning ishlarida ko'rib chiqilgan [7]. Ular 1 dan 0,56 dan 3000 m gacha bo'lgan balandlik koeffitsientini 200 m balandlikda joylashgan standart suv omborining ko'rsatkichlariga kiritishni taklif qilishdi, bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, hatto bitta tog'tizimida ham turli xil fizik-geografik zonalar bug'lanishning gidrometeorologik omillarga empirik bog'liqligiga ega bo'lishi mumkin.

N.E.Gorelkin va A.M.Nikitinlar o'z asarlarida o'rta Osiyo va Kavkazning tog'li hududlarida joylashgan jami 11 ta stansiyaning bug'lanish havzalaridan dastlabki ma'lumotlar sifatida foydalanishgan va turning o'rtacha bog'liqligini olishgan.

$$E=0,19n(\ell_0-\ell_{200}) (I+0,51W_{200}) \quad (6.16)$$

20 m<sup>2</sup> bug'lanish hovuzlari ma'lumotlari asosida bajarilgan hisoblashlar shuni ko'rsatdiki, a va b koeffitsientlari hisobga olingan stansiyalarning soni va joylashishiga qarab sezilarli darajada o'zgaradi. Shuning uchun tog' suv havzalarining suv yuzasidan bug'lanish hisoblarida o'rtacha bog'liqlik tavsiya etiladi (1.16) [23].

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu barcha empirik formulalar uchun hisob-kitoblarning ishonchliligi ularga kiritilgan elementlarni aniqlashning ishonchliligiga bog'liq. Ushbu hisoblash formulalariga kiritilgan barcha elementlar suv yuzasi uchun aniqlanishi kerak. Ko'pgina hollarda bunday ma'lumotlar mavjud emasligi sababli, ushbu formulalar yordamida ommaviy hisob-kitoblarni amalga oshirishda kontinental stansiyalarda olingan meteorologik elementlar

to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish kerak, so'ngra ushbu ma'lumotlarni suv omboriga qayta hisoblash kerak.

Hozirgi bosqichda o'rta Osiyo hududida suv yuzasidan bug'lanishni dala o'rganish 1951 yilda boshlangan bo'lib, dastlabki suv-bug'lanish maydonchalari ochilgan, maydoni  $2\text{m}^2$  bo'lgan 2 ta bug'lanish havzasi, GGI-3000 va bitta suzuvchi bug'latgichlar o'rnatilgan. Kelgusida bu tarmoq rivojlanib, 1951-1980 yillar davomida 120 dan ortiq turli xildagi suv bug'latish zavodlari faoliyat ko'rsatdi [23]. Bu ma'lumotlardan foydalanib, N.E.Gorelkin va A.M.Nikitinlar o'rta Osiyo uchun bug'lanish xaritalarini tuzdilar.

B. E. Milkis o'rta Osiyodagi suv havzalaridan bug'lanish xaritasini tuzib, issiqlik balansi usuli bilan bug'lanishni katta tajriba ishlarini olib borgan.

Ko'pgina ilmiy ishlarda GGI formulasi O'rta Osiyoning tekis hududi uchun va (6.16) formulasi tog'li hududlar uchun aniqroq ekanligi ko'rsatilgan.

### 6.1. Suv yuzasidan bo'layotgan bug'lanish

ombori yuzasi va atmosfera o'rtasida doimiy molekulyar suv almashinuvi yuz berib turadi. Bug'lanish jarayonida suv zarrachalari suv ombori yuzasidan atmosferaga ko'chadi. Bug'lanish

$$\underline{EF},$$

da;

$At$  vaqt davomidagi o'rtacha yo'qotiladigan suv sarfi

$E_{ss}$  - suv sathidan bug'lanadigan qatlam, mm;

$E_{sot}$  - suv ombori kosasidan suv to'ldirilganga qadar bo'lgan bug'lanish, mm;

$o_r$  - suv ombori suv yuzasining o'rtacha maydoni,  $\text{m}^2$ . Bu qiymat  $F = f(Z)$  grafikdan suv omborining  $t$  vaqt davomida o'rtacha to'ldirilgan sathiga to'g'ri keladigan raqamga teng.  $t$  - dekada, oy, mavsum va yil bo'lishi mumkin va u sekundlarda o'lchanadi;

a

o

e atSION usul;

o ent diffuziya usuli;

a antirgichlari;

o • s

a • empirik formulalar yordamida.

a v

e va issiqlik balansi usuli;

e

a

a

a

o

o

o

o

a

a

a

c

a

o

6.1-jadval

Suv omboridan yo'qoladigan suvning tavsiflarini tuzish.

Suv sathi N, m.	YUza maydon ω km <sup>2</sup>	Suv ombori ni hajmi mln. m <sup>3</sup>	Shimi-lish. Sh mln. m <sup>3</sup>	Oylik yo'qolishlar mln. m <sup>3</sup>											
				I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
Bug'lanish qatlami λ m.				0,051	0,032	0,032	0,032	0,062	0,147	0,219	0,251	0,202	0,149	0,104	0,068
10	0,15	0,75	0,011	0,0076	0,0048	0,0048	0,0049	0,0093	0,0221	0,0328	0,0376	0,0308	0,0223	0,0156	0,0102
				0,0186	0,0158	0,0158	0,0159	0,0203	0,0331	0,0438	0,0486	0,0413	0,0333	0,0266	0,0212
20	0,70	5,0	0,075	0,0357	0,0224	0,0224	0,0231	0,0434	0,1029	0,1533	0,1757	0,1414	0,1043	0,0728	0,0476
				0,1107	0,0974	0,0974	0,0981	0,1184	0,1779	0,2283	0,2507	0,2164	0,1793	0,1478	0,1226
30	1,25	14,75	0,221	0,0637	0,04	0,04	0,0412	0,0775	0,1837	0,2737	0,3137	0,2525	0,1862	0,13	0,085
				0,2847	0,261	0,261	0,2622	0,2985	0,4047	0,4947	0,5347	0,4735	0,4072	0,351	0,306
40	1,90	29,5	0,4425	0,0969	0,0608	0,0608	0,0627	0,1178	0,2793	0,4161	0,4769	0,3838	0,2831	0,1976	0,1292
				0,5394	0,5033	0,5033	0,5052	0,5603	0,7218	0,8386	0,9194	0,8263	0,8256	0,6401	0,5717
50	2,30	50,5	0,7575	0,1173	0,0736	0,0736	0,0759	0,1426	0,3881	0,5037	0,5773	0,4646	0,3427	0,2392	0,1564
				0,8748	0,8311	0,8311	0,8334	0,9001	0,0956	1,2612	1,3348	1,2221	1,1002	0,9967	0,9139



60	2,75	76,75	1,136	0,14	0,08	0,088	0,090	0,2705	0,4042	0,602	0,6902	0,5555	0,4097	0,286	0,18
				02	8		7			2					
70	3,50	107,0	1,605	1,27	1,22	1,224	1,226	1,3065	1,5402	1,738	1,8262	1,6915	1,5457	1,422	1,32
				62	4		7			2					
80	4,40	146,5	2,1975	0,17	0,11	0,112	0,115	0,217	0,5845	0,766	0,8785	0,707	0,5215	0,364	0,23
				85	2		5			5					
90	5,30	195,0	2,925	1,78	1,78	1,717	1,720	1,822	2,1195	2,371	2,4835	2,312	2,1265	1,969	1,84
				35	7		5			5					
80	4,40	146,5	2,1975	0,22	0,14	0,140	0,145	0,2728	0,6468	0,963	1,1044	0,8888	0,6556	0,4576	0,29
				44	08	8	2			6					
90	5,30	195,0	2,925	2,42	2,33	2,338	2,342	2,4703	0,8443	3,161	3,3019	3,0863	2,8531	2,6551	2,49
				19	83	3	7			1					
90	5,30	195,0	2,925	0,27	0,26	0,169	0,174	0,3286	0,7791	1,160	1,3303	1,0706	0,7897	0,5512	0,36
				03	96	6	9			7					
100	6,30	253,0	3,795	3,19	3,09	3,094	3,099	3,2536	3,7041	4,085	4,2553	3,9956	3,7147	3,4762	3,28
				53	46	6	9			7					
100	6,30	253,0	3,795	0,32	0,20	0,201	0,207	0,3906	0,9261	1,379	1,5813	1,2726	0,9387	0,6552	0,42
				13	16	6	9			7					
100	6,30	253,0	3,795	4,11	3,99	3,996	4,002	4,1856	4,7211	5,174	5,3763	5,0676	4,7337	4,4502	4,22
				63	66	6	9			7					

- $Z = \frac{\lambda \cdot \varpi}{1000}$  mln. m<sup>3</sup> – bug‘lanish hisobiga yo‘qolish - suratda.
- $Y = Sh + Z$  mln. m<sup>3</sup> - umumiy yo‘qolish - maxrajda.

quyidagi tenglamadan foydalaniladi:

$$E + P_{wa} + P_{ww}$$

$E$  - bug'lanish, mm;

$P_{wa}$  - suv sathi va havo o'rtasidagi turbelent issiqlik almashinuvi;

bo'ladigan issiqlik miqdori orasidagi munosabatni ifodalovchi Bouen formulasidan foydalanib

$$Je + 0,64 At$$

$E$  - bug'lanish, mm/soat;

$T_b$  - bug'lanish uchun zarur issiqlik, grad.;

$T_a$  - yerdan atmosferaga o'tadigan issiqlik, grad.;

$T_e$  - yerga o'tadigan issiqlik oqimi;

$Jt$  - 0,5 va 2 m balandlikda havo harorati farqi;

$Ae$  - 0,5 va 2 m balandlikda suv bug'ining tarangligi.

**Turbulent diffuziya usuli** suv yuzasidan bo'ladigan bug'lanishni aniqlashning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo'lib, turbulent diffuziya nazariyasiga asoslangan. Formulalarni keltirib chiqarishda asosiy tenglama quyidagi ko'rinishga ega:

$$\left(\frac{d(pq)}{dt}\right) = \frac{d^2(pk_n q)}{dn^2}$$

bu yerda,

$k_n$  -  $n$  o'qi bo'ylab turbulent almashinuvi koeffitsienti.

Tenglamani integrallab, bug'lanish miqdorini aniqlash formulasini olamiz:

(6.21)

$$E = 0,623 \frac{\rho k}{P} \frac{\partial e}{\partial z}$$

bu yerda,

$P$  - atmosfera bosimi;

$e$  - suv bug'ining partsial bosimi (taranglik).

Turbulent almashinuvi koeffitsientini kiritib, bug'langan suvning amalda qo'llashga qulay bog'lanishini hosil qilamiz, mm/sut:

$$E = 0,12 \omega(E' - e_2) \quad (6.6)$$

bu yerda,

$\phi$ - 1 m balandlikdagi shamol tezligi, m/s;

$E'$  - to'yingan suv bug'ining bosimi;

$e_2$  - 2 m balandlikdagi suv bug'ining partial bosimi.

**Empirik formulalar usuli:** Hozirgi davrda ko'p izlanishlar va tajribalar asosida ko'plab empirik formulalar ishlangan bo'lib, ularning asosi 1802-yilda Dalton tomonidan taklif qilingan agi ko'rinishga ega:

erda  $E_g$  - shamol tezligiga bog'liq koeffitsient.

a suv yuzasidan bug'lanishni hisoblash uchun turli formulalar qo'llanadi. Ularni ikki turga bo'lish o'g'ridan-to'g'ri, ya'ni asboblari yordamida gidrometrik o'lchovlar o'tkazish bilan bog'liq usul. ozirda bug'lanishni hisoblashning yog'ingarchilik va suv balansining boshqa elementlari bilan og'liq holda aniqlash usullari ham keng qo'llanadi. Bunga misol sifatida E.M. Oldekop, R. eyber, V.S. Mezentsev, M.I. Budiko va boshqa mualliflar tenglamalarini keltirish mumkin:

$E =$

$$\sqrt{E_0 x \left[ 1 - \exp\left(\frac{E_0}{x}\right) \operatorname{tg}\left(\frac{x}{E_0}\right) \right]}$$

bu yerda  $x$  - yillik yog'ingarchilik normasi, mm;

$E_g$  - bug'lanish,  $E_g = R_0/L_E$  formula orqali aniqlanadi;

$R_0$  - namlangan yuza radiatsion balansining yillik normasi;

$L_E$  - bug'lanishning solishtirma issiqligi.

V.S. Mezentsev tenglamasining ko'rinishi:

$E ==$

$$E_m \left[ 1 + \left( \frac{x+W_1-W_2}{E_m} \right)^n \right]^{-\frac{1}{n}}$$

miqdori, mm;

va  $W_2$  - ko'rilyotgan davr boshi va oxirida yerning 1 metrlik qatlamidagi namlik zapasi;

### **Bug'lanish miqdorini kuzatuv ma'lumotlari asosida aniqlash**

Gidrometeorologik kuzatuv ma'lumotlariga asoslangan holda suv sathidan bug'lanishning o'rtacha oylik miqdorini qatlam ko'rinishida (mm) aniqlash uchun Braslavskiy-Vikulina formulasidan foydalanish mumkin:

oy davomida sutkalar soni;

maksimal elastikligining o'rtacha qiymati bo'lib, u suv temperaturasiga bog'liqdir, mb;

$e_{200}$  - suv sathidan 200 sm yuqoridagi havoning absolyut namligi, mb;

sathidan 200 sm yuqoridagi shamol tezligining o'rtacha qiymati, m/s.

obyekti hududida meteorologik kuzatuv olib borilmagan holda, quruqlikdagi eng yaqin meteorologik kuzatuv punkti ma'lumotlaridan foydalaniladi.

